

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«GUMANITAR FANLAR » KAFEDRASI

MILLIY G'OYA

**fanini o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
I.A.Karimov asarlaridan foydalanish bo'yicha**

Metodik qo'llanma

Ushbu metodik qo'llanma institut ilmiy - metodik Kengashining 8 aprel 2010 yilda bo'lib o'tgan 6 - sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Mazkur ishda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillarini chuqurroq o'rghanishda Prezident Islom Karimovning asarlaridagi ilmiy-nazariy tahlillaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan.

Ushbu metodik qo'llanma milliy g'oya va milliy mafkura to'g'risidagi Yurtboshimizning fikrlari, ko'rsatmalarining yetuk mutaxassislar tayyorlab yetkazishdagi ahamiyatini ko'rsatishga bag'ishlangan.

Tarix fanlari doktori, professor R.Sangirovning umum tahriri ostida

Tuzuvchilar: Sangirov R.S t.f.d., professor

Zuparova M.Q katta o'qituvchi

Shermuxamedova O.U o'qituvchi

Taqrizchilar: Raximov S.R TMI, falsafa kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori

Mirzoqulov I.M. falsafa fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

Mustaqillik sharoitida milliy istiqlol g'oyasini o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Eski ijtimoiy tuzumdan mutloqa yangi tuzumga o'tishda milliy g'oyani o'rganishga ehtiyoj tobora oshib bormoqda.

"Milliy istiqlol g'oyasi bugungi kunda tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda, o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur" deydi Islom Karimov.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari Prezidentimiz Islom Karimovning qator asarlarida ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Shu bois milliy istiqlol g'oyasini oliv ta'lif tizimining bakalavr bosqichida o'rganishda ulardan foydalanish o'ziga xos amaliy ahamiyatni kasb etadi. Chunki, Prezidentimiz asarlarida milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalari, maqsad va vazifalari hamda bu fanni o'rganishning metodologiyasi atroflicha asoslab berilgan.

Mazkur metodik qo'llanmada har bir mavzuning mazmuni va mohiyatini bayon etishda Islom Karimov asarlaridan samarali foydalanishning ahamiyati ham urg'ulangan va metodik tavsiyalar berilgan. Har bir mavzu bayoni oxirida takrorlash uchun savollar hamda referat mavzulari joy olgan.

Ushbu metodik qo'llanmaga xos xususiyatlardan biri bu Prezident Islom Karimovning – «Yuksak ma'naviyat – yengimas kuch» kitobdagagi milliy g'oya, yuksak ma'naviyatni shakllantirish bilan bog'liq qator turli xarakterdagи qarashlarning har bir mavzuning mazmuniga uzviylikda singdirilib yuborilganligidir.

O'ylamizki, milliy g'oyani o'rganishga bunday yondashuv bakalavriat bosqichida ta'lif olayotgan talabalarning milliy istiqlol g'oyasi to'g'risidagi bilimlarini yanada boyitishda, ularning mustaqil fikrlashlari va jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarga to'g'ri munosabatlarni bildira olishiga ijobiy, samarali ta'sir etadi.

Ushbu metodik qo'llanma «Milliy istiqlol g'oyasi» fanidan dars beruvchi o'qituvchilar mo'ljallangan.

I BO'LIM. JAMIYAT TARAQQIYOTINING G'OYAVIY ASOSLARI VA HOZIRGI ZAMON

I.1 Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti.
2. Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi va vazifalari.
3. Milliy istiqlol g'oyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

1. Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti

1-mavzu bo'yicha tuzilgan rejadagi birinchi savolning mohiyatini bayon etishdan oldin g'oyalar to'g'risida talabalarga qisqacha ma'lumot berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

G'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad va muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr.

Milliy g'oya – millatning o'tmishi, bugungi va istiqbolni o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

Milliy istiqlol g'oyasi - O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol g'oyasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad – mudaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu- istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan ma'naviy omillardir.

O'qituvchi g'oyalar to'g'risida qisqacha to'xtab o'tgandan keyin Prezidentimiz Islom Karimovning milliy g'oya mohiyati to'g'risidagi quyidagi fikri bilan talabalarni tanishtirishi mumkin.

“...milliy g'oya, milliy iftixor kundalik mashaqqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag'ishlab, ruhimizni baland, belimizni baquvvat qilishiga ishonaman” (Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., “O'zbekiston” 1998, 15 – bet)

“Milliy istiqlol g'oyasi” – mustaqillik yillarida davr talabi va jamiyatimiz ehtiyoji tufayli shakllangan zamonaviy zaruriy fandir. Uning predmetini O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yillarida to'plagan tajriba, o'ziga xos taraqqiyot yo'li, keljakda buyuk davlatni barpo etish borasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, milliy g'oya va milliy mafkuraning jamiyat rivojlanishiga ta'siri tashkil etadi.

O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasi shakllanishining nazariy asosini yurtboshimiz Islom Karimov asarlari asosida tayyorlangan “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari” risolasi va boshqa qator kitoblar tashkil etgan.

Milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz taraqqiyoti va kelajagining mafkuraviy, ma'rifiy, ma'naviy tamoyillarini ifoda etuvchi, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan mafkura to'g'risidagi yaxlit tizimli, izchil ta'limotdir. Bu ta'limot o'z tushuncha va tamoyillari, tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy va

diniy, milliy hamda umumbashariy ildizlariga ega muayyan tarixiy zaruriyat mujassam bo'lgan fanning asosini tashkil etadi.

1-mavzuga oid, inson va jamiyat taraqqiyotida g'oya mafkuralarning o'zaro munosabati, milliy rivojlanish va milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda Yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T., «Ma'naviyat», 2008., kitobining II – bob. Milliy g'oya va ma'naviy hayot qismidan keng foydalanish uchun materiallar yetarli darajada (71 – 76 – betlar) berilgan.

Birinchidan, bu qismda insoniyatning ko'p asrlik tarixida milliy davlat qurishga intilgan har bir xalq o'z oldiga qo'ygan yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilishda milliy g'oya tayanch ekanligi urg'ulangan.

"Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqr ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng orzu – intilish va umid – maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun – mohiyatini ifoda qilgan bo'lamic" (Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. 71 – bet)

Ikkinchidan, ushbu kitobda istiqlol qo'lga kiritilgan ilk kunlardan boshlab milliy g'oyaning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olishga harakat qilinganligi va shu maqsadda ijtimoiy fanlar sohsidagi yetakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyyolilar, keng jamoatchilik e'tiborini ana shu masalaga qaratilganligi qayt etilgan. (71 – 72-betlar)

Ma'lumki, har qaysi fan o'zining tushuncha va mezonlariga va qonuniyatlariga ega.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalari ham mazmun–mohiyatiga ko'ra mazkur fanning mazmuni to'g'risida to'liq tassavvurga ega bo'lishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois Yurtboshimiz milliy g'oyaning ayrim tushunchalari haqida shunday yozgan: "Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurda yashayotgan barcha odamlarning oliyjanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi" (Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008, 72 – bet.)

Shunisi xarakterlikni, milliy g'oyaning har bir tushunchasi keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda nashr etilgan metodik qo'llanmalarda milliy g'oyaga ta'luqli 50 ga yaqin tushunchalar berilgan. "Milliy g'oya", "Milliy istiqlol g'oyasi", "Milliy rivojlanish g'oyasi", "Milliy istiqlol mafkurasi", "Vatan ravnaqi", "Yurt tinchligi", "Xalq farovonligi", "Diniy bag'ri kenglik", "Ijtimoiy hamkorlik" va boshqa ko'plab tushunchalar ham Islom Karimov asarlarida o'z ifodasini topgan.¹

Aniq maqsad va vazifalarga yo'naltirilgan milliy istiqlol g'oyasi xalqimiz va millatimizga taraqqiyot tamoyillarini ko'rsatib boruvchi umummiliy dastur bo'lib, unda jamiyatimizning rivojlanishi qonuniyatlarini o'ziga xos tarzda aks etadi.

¹ Qarang. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari T., "O'zbekiston", 1997. 69-84, 137 – 146 – betlar, Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk keljakka ishonchdir. T., "O'zbekiston", 2000. 20 – 21- betlar.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini o'rgatish va o'rganishda o'qituvchi quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- ma'naviy, mafkuraviy ishlarni olib borishda fuqarolarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini xisobga olish;
- targ'ibot, mashg'ulotlar jarayonida tazyiq o'tkazmasdan ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, baxs- munozara yuritish ko'nikmalarini oshirishlarini rag'batlantirish;
- targ'ibotchi va tinglovchilar o'rtasida o'zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharxlashda hayotiy misollardan samarali foydalanish;
- yoshlarda g'oyalar o'z ma'no – mohiyatiga ko'ra asosan bunyodkor yoki vayronkor bo'lishi haqidagi hayotiy va xaqqoniylari tasavvurlarni shakllantirish;
- milliy istiqlol g'oyasining umuminsoniy mohiyatini yoritish asosida mustaqillik biz uchun eng oliv qadriyat, uni asrab – avaylab, boyitib kelgusi avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimiz ekanini xalq, talabalarning ongiga singdirish.

2. Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi va vazifalari.

Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z maanfatlarini, maqsad - mudaolari, orzu – intilishlarini ko'zlab, bosh maqsadni aniqlab, harakat qiladi.

Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qilishdir.

Demak, bu fanning maqsadi: milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini yosh avlod qalbiga singdirishdan iborat. Bu fanning vazifasi zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiyliy fazilatlarini payvand qilishdek olajanob ishlarmizda madadkor bo'lishi zarur»¹.

Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi va vazifalari yurtboshimizning qator asarlarida ilmiy – nazariy jihatdan asoslab berilgan. Biz yuqorida sanab o'tgan manbalar ichida “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – terovard maqsadimiz”, “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonch”, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kabi asarlarda milliy g'oya va milliy mafkurani ishlab chiqish, ularni aholi orasida targ'ib etish, yoshlar ongiga singdirish, qolaversa jamiyat, yurt Vatan taraqqiyotining muhim omili sifatida o'rganish zarurligi atroflicha asoslab berilgan. Masalan, «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir” nomli risolasida: “Milliy g'oya, milliy mafkurasini ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'lsa, mutafakkirlari, xalq va Vatan ravnaqi uchun hayotini bag'ishlaydigan fidoiy ziyyolilari mehnat qilishlari lozim” deb ta'kidlangan (21- bet).

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: “O'zbekiston”, 1998. – 156 -bet.


Ushbu risolada milliy g'oya, milliy mafkurani tepadan turib yaratib va hayotga joriy etib bo'lmasligi, balki, olimlar va mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilishi zarurligi ko'rsatilgan (21 – 22 - betlar)

Milliy g'oyaning maqsadi va vazifalari o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra juda keng qamrovli buni biz Yurtboshimizning quyidagi fikridan bilib olishimiz mumkin:

"...milliy g'oyamizga qaysi tomondan ta'rif va baho bermaylik, xalqimizni birlashtiradigan bu oliv maqsadlar asrlar davomida uning yuradagidan, qalbidan joy oliv kelgan orzu-armon va ezgu ishlar bilan chambarchas bog'liq ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no – mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy – ma'rifiy, ta'lim – tarbiya ishlarning markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat" (Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 75 – bet)

O'qituvchi darsda 2-masala bo'yicha quyidagi shakldan foydalanishi mumkin (shakl – 1)



Mazkur 1-mavzudagi ikkinchi savolning to'liq mazmunini tushunib, u bilan tanishib chiqish uchun "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" nomli asarning ikkinchi bob (71-109-bet)idan foydalanish o'rnlidir. Bu bobda quyidagi masalalarga e'tibor berilgan:

1. Milliy g'oya tushunchasiga ijtimoiy, siyosiy va huquqiy nuqtai nazardan turib keng qamrovli ta'rif berilgan.

2. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab milliy g'oyaning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini bellgilab (aniqlab) olish va ishlab chiqish vazifasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani qayd etilgan.
3. Milliy g'oya tarkibiy qismlarining ta'lim-tarbiyada tutgan o'rni to'g'risidagi fikrlar.

“Milliy istiqlol g'oyasi” fanining 1-mavzusini o'rganish jarayonida milliy istiqlol g'oyasining tamoyillari to'g'risida kerakli darajada bilimga ega bo'lismalabalar uchun muhimdir. Shu sababli o'qituvchi darsda quyidagi tamoyillar ustida to'xtab o'tishi lozim. Chunki, keyingi mavzular mazmuni bilan tanishtirishda tamoyillar to'g'risidagi tushunchalar albatta asqotadi. Shunga e'tibor qaratish lozimki, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari amal qilish jarayonida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bunda biz uning mafkura sifatidagi umumiy tamoyillari bilan talabalarni tanishtirishimiz mumkin.


Shakl-2

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari.

- Mamlakatning mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilish;
- Davlatimizning hududiy yaxlidligi va sarhadlari daxlsizligini ta'minlashda yordam berish;
- Qonun ustivorligini ta'minlash;
- Demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallashiga asoslanish;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;
- Xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
- Iqtisodiy plyuralizm va xilma-xil mulkchilikning erkin shakllanishini ta'minlash;
- Davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlashiga tayanish;
- Vijdon erkinligi va fikrlar rang-barangligi muhitini shakllantirish;
- O'tish davrida jamiyat barcha sohalarining erkinlashuvi.

Ushbu yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarning barchasi bir-biri bilan o'zaro aloqada va bog'liqlikda amalda namoyon bo'ladi. Mazkur tamoyillar mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqishda o'ziga xos ahamiyatni kasb etadi.

Har bir fanni o'rganishning o'z metodologiyasi va qonuniyatlari bo'lganidek, milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning asosiy qonuniyatlari mavjud.



Milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning ob'ektiv zarurli biz qurayotgan va yashayotgan demokratik jamiyatning rivojlanishi va fuqarolik jamiyati asoslarini qurish bilan bog'liq.

Ushbu mavzu rejasida belgilangan 3-savol “Milliy istiqlol g'oyasi” fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan aloqadorligi”ni o'rganish ham dolzarb masalalardan birdir. “Milliy istiqlol g'oyasi” fani falsafa, ijtimoiy falsafa, tarix, siyosatshunoslik, sotsiologiya, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik, madaniyatshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi, bir-birini to'ldiradi.

Shuningdek, adabiyot, demokratik jamiyat qurish nazariyasi va huquqshunoslik fanlari bilan ham bog'liqlikda rivojlanadi va mazmunan boyib boradi. Bunday munosabat amaliyotda ustivor ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, milliy g'oyaning shakllanishi va rivojlanishida fanlararo bog'liqlik tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, milliy g'oyaning eng asosiy tushunchalarini belgilab olishda ijtimoiy fanlar sohasidagi yetakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyolilar faol ishtirok etgan.¹

Tayanch tushunchalar: jamiyat, mustaqillik, fanning predmeti, fikr, g'oya, nazariy asos, milliy g'oya, mafkura, maqsad va vazifalar, shaxs, jamiyat va milliy istiqlol g'oyasining munosabati, milliy istiqlol g'oyasi tamoyillari, o'rganish qonuniylatlari, bog'liqlik, omillar.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Milliy istiqlol g'oyasining fan sifatida o'rganishni taqazo etuvchi ob'ektiv shart-sharoitlari va sub'ektiv omillari.
2. G'oya va g'oyalar kimlar tomonidan shakllanadi?
3. Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari haqida Islom Karimov.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 71-72-betlar.

4. Prezident Islom Karimovning milliy g'oya va milliy mafkuraga oid qaysi asarlarini bilasiz?

Referat uchun mavzular

1. O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasining shakllanishining ilmiy-nazariy va tarixiy asoslari
2. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalari
3. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari
4. Milliy istiqlol g'oyasidagi ilmiy-nazariy masalalarni o'rganishda Prezident Islom Karimov asarlarining o'rni.

2-Mavzu. Jamiyat taraqqiyotining g’oya, mafkuralar bilan o’zaro bog’liqligi. Reja.

1. Jamiyat taraqqiyotining muayyan fikrlar, g’oyalar, mafkuralar bilan bog’liqligi.
2. G’oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta’siri.

Har qanday mamlakatda jamiyat taraqqiyoti ko’p jihatdan jamiyatdagi muayyan fikrlar, g’oyalar, va mafkuralarning o’zaro bog’liqligi tamoyiliga asoslanadi. Jamiyat taraqqiyotini muhim omili hisoblanuvchi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot sohasidagi o’zaro uyg’unlikni ta’minlashning ob’ektiv zarurligi Yurtboshimizning ko’pgina asarlarida chuqur tahlil qilingan. Masalan, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asarida moddiy va ma’naviy hayot uyg’unligi haqida to’xtalib shunday dedi: «Moddiy va ma’naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o’zaro bog’lanib, bir-birini to’ldiradi.

Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o’z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog’liq asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi”. (68–69 -betlar).

Ana shu falsafiy – siyosiy tahlildan kelib chiqqan holda bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy o’nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg’un ravishda rivojlanib borishi masalasi davlatimiz siyosatining markaziga qo’yib kelinayotganligi bejiz emas.

Jamiyatimizning ma’naviyat sohasida amalda oshirilayotgan islohotlarning samarasи ilg’or fikrlar, g’oyalar, mafkuralarning o’zaro bog’liqlik darajasi bilan o’lchanadi. Jamiyat taraqqiyotida kishilarning tevarak olam sirlarini o’rganishi, tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etishi, tabiiy bilimlari va dunyoqarashlari juda muhim ahamiyatga ega. Dunyoning tuzilishini tushuntirgan va unda qanday yashash lozimligini ko’rsatgan ilmiy bilimlarning yuzaga kelishida insoniyatning eng ilg’or vakillari yaratgan dunyoviy g’oyalar o’zaro bog’liqlikda hamisha taraqqiyot uchun xizmat qilib kelgan.

Jumladan, Demokritning atomlar to’g’risidagi farazlari, Kopernikning gelotsentrik nazariyasi, Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi yutuqlari, Beruniyning “g’arbiy yarimsharda quruqlik bor” degan fikrlari, Ulug’bekning koinot sirlarini o’rganish sohasidagi yutuqlari, Eynshteynning nisbiylik nazariyasi kabi ilmiy g’oyalar insoniyat taraqqiyotiga juda kuchli ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

Inson tafakkuriga tayangan fan taraqqiyoti olam kabi uzlusiz va cheksizdir. Bu jarayonda tasdiqlanmagan, eskirgan fikrlar yangi ilmiy g’oyalar bilan o’rin almashaveradi. Millatlar tashkil topgan davrlardan boshlab, milliy g’oya va mafkuralar eng dolzarb, siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy masala hisoblanib, jamiyatni sog’lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, ommani ma’naviy-ruhiy jihatdan tarbiyalashga katta ijobiy ta’sir ko’rsatib kelmoqda. Inson kamolotini fiksiz tasavvur qilib bo’lmaganidek, jamiyat tarixini ham g’oya va mafkuralarsiz tushuntirib bo’lmaydi.

Fikr, ziddiyatli fikrlar dastlab individ ongida paydo bo’ladi. Inson kamolga yetishi bilan uning fikrlari ham, ular o’rtasidagi kurashlar ham kuchayib boradi. Ular qanchalik haqiqatni ko’p ifoda etsa, shunchalik ko’pchilikning mulkiga aylanadi. Chinakam g’oya maqomiga erishadi. Tabiiyki, bu tez kechmaydi. Xuddi shuningdek,

g’oya va mafkura, ayniqsa, milliy g’oya birdaniga qisqa muddatda paydo bo’ladigan hodisa emas. Aslida go’yo birdaniga paydo bo’lganday tuyulgan g’oya zamirida ham ongning, kishilar fikriy, g’oyaviy izlanishlarining ko’p asrlik taraqqiyoti yotadi. Shu jihatdan qaralganda milliy g’oya uzoq jarayonlarning hosilasi bo’lib, o’zida individlar majmuasidan iborat bo’lgan xalqning tarixi, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari, ma’naviyatini mujassam etadi.

Ilk asoslari ayrim shaxslar tafakkurida paydo bo’ladigan milliy g’oya va mafkura har bir fuqaro ongi va shuuriga chuqur ta’sir qilib uning oila, mahalla, jamiyat, davlat, xalq oldidagi burch va mas’uliyati qay darajada ado etilayotganini nazorat qilib turadi. Bu jarayon jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir.

Milliy g’oya – millat tafakkurining ko’p asrlik mahsuli va davr taqozosi bilan takomillashib boruvchi uzluksiz hodisadir. Falsafada “fikrlayapman, demak yashayapman” degan hikmat bor. Milliy g’oya – inson va jamiyat hayotiga ma’nomazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui, xalq hayotining fikriy ifodasidir. Lekin har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g’oya bo’la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o’ziga xos bir qarashdir. Ammo, yuqorida aytganimizdek, u o’sib, ijtimoiy fikrga aylanishi mumkin. Boshqacha aytganda, fiksiz g’oya yo’q. Ijtimoiy fikr esa – voqelikka nisbatan o’zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G’oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug’ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Milliy mafkura – mohiyatan milliy g’oyaga yetish yo’lidir. Nima qilinsa, shu g’oyaga intilish tezlashadi, osonlashadi, maqsad amalga oshadi, qanday ish tutilsa, mazkur g’oyaga zid harakatlarning yo’li to’siladi – milliy mafkura aynan shu savollarga javob beradi va o’ziga xos vazifalarga ega.

Ilmiy tilda talqin etadigan bo’lsak, milliy mafkura – taktika bo’lib, tarixan diniy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, falsafiy shakllarda namoyon bo’ladi. Milliy mafkura – xalqning o’zgalarga tobe bo’lmay erkin va ozod yashashi, o’zini o’zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu-umidlari, qarashlari, eng ilg’or fikrlari majmuidir.

Prezidentimiz “Tafakkur” jurnali bosh muharriri bilan bo’lgan suhbatda mafkuraga, xususan, milliy mafkuraga bo’lgan munosabatini konsepsiya sifatida shunday ifodalaydi: “Odamlarning, ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko’zlagan va uning dunyodagi o’rnini aniq - ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o’rtasida o’ziga xos ko’prik bo’lishga qodir g’oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman”¹.

Darhaqiqat, mafkura o’tmish, bugungi va ertangi kun o’rtasida o’ziga xos tafakkur ko’prigi va millatni birlashtiruvchi bayroqdir. O’zbekistonda bir yuz o’ttizdan oshiq millat, elat va etnik guruhlar bir mamlakat hududida yashar ekan, ularning bir maqsadni ko’zlashi, o’zaro uyg’unlikka ega bo’lishi, milliy birlikni vujudga keltirish uchun, albatta, o’ziga xos bir milliy mafkurasi bo’lishi hayotiy zaruriyatdir. Shuning uchun ham, mafkura bugungi kunimizda ko’p millatli xalqimizni bir davlat miqyosida, bir yurt xalqini bir hududda birlashtiruvchi asosiy kuch sifatida ham maydonga kelishi mustaqil taraqqiyot talabi hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: “O’zbekiston”, 1998. –11 b.

Milliy mafkura bizda davlat mafkurasi emasligi Asosiy Qonunimizning 12-moddasida “O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o’rnatalishi mumkin emas” deb belgilab qo’yilgan. Ma’lumki, har qanday davlat mafkurasi ma’lum darajada kuchga asoslanadi. Milliy mafkura esa ixtiyoriylikka baynalminallikka tayanib, mamlakat xalqining manfaatlarini himoya qiladi, shunga asoslanadi. Milliy mafkurasi kuchli xalqlarda “men” va “jamiyat” degan tushunchalar o’zaro birikib, uyg’unlashib ketadi. Bu o’ziga xos uyg’unlik bo’lib jamiyat rivojiga ta’sir ko’rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti omillarining o’zaro bog’liqlik nazariyasi Prezident Islom Karimov asarlarida chuqr tahsil etilgan. Dars jarayonlarida ulardan foydalanish o’tilayotgan dars mashg’ulotining yanada sifatli bo’lishida muhim o’rin tutadi. Masalan “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin” nomi risolasida shunday deydi: “...jamiyatimizda bugun mavjud bo’lgan xilma-xil fikrlar va g’oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yukasak maqsadlari sari chorlaydigan yagona g’oya-mafkura bo’lishi kerak”. (14-bet)

Demak, ezgu maqsadlar fikrlar, g’oyalar va mafkuralarning o’zaro bog’iliqlini ta’minalashga asos bo’ladi. Mafkura esa o’z tabiatni va negizlariga ko’ra jamiyat oladidagi maqsad vazifalarni qamrab olib, buyuk maqsad sari yo’naltirishda o’ziga xos rolni bajaradi. Ushbu risolaning 17-betida ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’zaro bog’liqlik to’g’risida shunday deyiladi: “...ta’lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta’lim tizimini o’zgartirmasdan turib, ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, tafakkurni o’zgartirmasdan turib esa biz ko’zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo’lmaydi”.

Ma’lumki, demokratik jamiyatda qarashlar, g’oyalar, mafkuralar xilma-xilligiga keng o’rin beriladi. Shuningdek, demokratik va siyosiy institutlar jamiyat taraqqiyotida o’ziga xos o’rin tutadi. Davlat hokimiyyati siyosiy tizimining yetakchi instituti sifatida jamiyatdagi mavjud turli xil g’oyalar, qarashlar, mafkuralarning quvvatini buyuk kelajak sari safarbar etishga harakat qiladi. Jamiyat, xalq, mamlakat oldida turgan ezgu maqsadlar esa o’zaro bog’liqlik qonuniyatlarining moddiy kuchga aylanishida muhim ahamiyatni kasb etadi.

Demak, milliy g’oya milliy mafkura jamiyat taraqqiyotida muhim o’ringa ega. Lekin milliy g’oya va milliy mafkura faqat millatga mansub kishilargagini talluqli deb tushunmasligi kerak. Milliy g’oyamiz va milliy mafkuramizning negizlari tizimida baynalminallik tamoyili boshqa millat vakillarining ham manfaatini hisobga olishda muhim o’rin tutadi.

Bu haqda Yurtboshimiz o’zining “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasidagi so’z boshida bunday deydi: “Shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, - deydi Islom Karimov, - milliy g’oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma’naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir”. (Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. 9-jild. T.: “O’zbekiston”, 2001. 23-24-betlar).

Yurtboshimiz “Tafakkur” jurnali bosh muharririning savollariga berilgan javoblaridan birida milliy mafkurasi keng qamrovligi to’g’risida to’xtalib shunday degan edi: “...jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo’lishi oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun g’ayrat manbai bo’lishi lozim”.¹

Endilikda O’zbekistonning milliy mafkurasi mamlakatimizning Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida va jahon miqiyosida o’ziga munosib o’rinni egallab olishdagi harakatga ijobiya ta’sir etmoqda.

Ushbu mavzuning birinchi savolini o’rganish (o’qitish) jarayonida Islom Karimov tomonidan jamiyatning mafkurasiz bo’lmasligi, g’oya va mafkuralarning inson va jamiyat oldiga qo’yilgan maqsadlar bilan mushtarakligi, “g’oya” va “mafcura”ning “yagona hukmron mafcura” tushunchasidan farqi, “mafcura bo’lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o’z yo’lini yo’qotish muqarar”ligi, jamiyatda mafkuraviy bo’shliqqa yo’l qo’yib bo’lmaslik to’g’risida yangicha konsepsiyasining ishlab chiqilishining ahamiyati talabalarga kengroq tushuntirib berilsa, ularning ushbu mavzu bo’yicha oladigan bilimlari yanada boyib boradi².

Shuningdek, o’qituvchi birinchi savolga oid bo’lgan qator masalalarni jumladan, inson va jamiyat hayotida g’oyalar, fikrlar xilma - xilligi, uning tabiiy, ijtimoiy – ma’naviy ehtiyoj ekanligi, davlatlar, xalqlar, mamlakatlarning o’z oldilariga qo’ygan taraqqiyot yo’li va madaniyatlar bilan farqlanishining sabab va mohiyatini ochib berishda Yurtboshimizning quyidagi so’zlarini o’qib berishi uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqdir:

“...mafcura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o’zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o’z taraqqiyot yo’lini, ertangi kun ufqlarini o’zining milliy g’oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi”. (Karimov I.A. milliy istiqlol mafkurasi xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 6-bet)

Mazkur mavzudagi “G’oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta’siri” degan 2-savol keng qamrovlidir. Shu bois o’qituvchi bu savol ustida to’xtaganda birinchi navbatda milliy g’oya va milliy mafkuraning shakllanishi va ularning vazifalariga e’tibor berishi lozim.

Milliy g’oya milliy mafkurani shakllantirish taraqqiyotimizning beba ho manbai bo’lmish inson omilining safarbar qilinishi bilan qadrli. Zero, islohotlar avval odamlar ongida, keyin kundalik faoliyatida amalga oshadigan jarayonlardir.

Milliy g’oya va milliy mafkura murakkab g’oyalar majmuasi sifatida o’nlab yillar davomida shakllanadi. U qotib qolgan nazariya emas, davr, vaqt o’tishi bilan takomillashib, rivojlanib boradi. Uning jamiyatga ta’siri ham asta-sekinlik bilan samaraliroq bo’lib boradi.

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: “O’zbekiston”, 1998. 13-bet.

² Qarang: (Karimov I.A. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin”. 4-15-betlar; “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”. 5-14, 20-31-betlar; “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. 71-76-betlar).

Milliy g’oya va milliy mafkura jamiyatning ma’naviy hayotiga o’ziga xos ichki mushtaraklik, bus-butunlik va umumiy maqsad bag’ishlaydi. Agar milliy g’oya va milliy mafkura xalqning tub manfaatlarini ifodalay olsa, jamiyat miqiyosida aksariyat fuqarolar, ijtimoiy qatlalar va sinflar tomonidan tan olinsa, ma’naviyatning barcha sohalariga kuchli ta’sir ko’rsatadi.

Milliy g’oya turli sinflar, tabaqalar, ijtimoiy guruqlar, qatlamlar matfaatlaridagi umumiyligi, ya’ni umummilliy manfaatlarni, xalqning orzusini aks ettiruvchi g’oya bo’lganligi uchun u millatni jihsligini ta’minlovchi, o’zilagini anglatuvchi ma’naviy omil hisoblanadi.

Milliy mafkura esa milliy g’oya zamirada shakllanadi va u ifodalagan oliy maqsad yo’lida jamiyat a’zolarini etnik mansubligidan, ijtimoiy ahvolidan, jinsi, yoshi, tilidan qat’iy nazar jipslashtiradi. Boshqacha aytganda, milliy g’oya milliy mafkura orqali xalqni kuch g’ayratini, irodasini, aqliy va hissiy salohiyatini belgilangan amallarga, orzu-umidlarga erishish tomon yo’naltiradi. Bu yo’lda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga safarbar etadi.

Milliy mafkuramiz nimalarga asoslanishi va ongimizga qanday tamoyillarni singdirilmog’i lozimligi to’g’risida Prezidentimiz shunday deydi: “Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonib, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma’rifat tuyg’ularini ongimizga singdirishi lozim. Shu bilan birga, bu mafkura xalqimizga o’zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib jahon hamjamiatidagi taraqqiy topgan davlatlar orasida teng huquqli o’laroq munosib o’rin egallahiga doimo intilish hissini tarbiyalamog’i kerak”.

Shuningdek, mazkur risolada Vatan qismatini o’z qismati deb biladigan keng jamoatchilikning ilg’or dunyoqarash va tafakkuriga asoslangan mafkura inson va jamiyat hayotiga sezilarli darajada ta’sir etishi mumkinligi ta’kidlangan (12-bet). Bulardan tashqari, bu risolada milliy g’oya va milliy mafkura o’z tamoyillaridan kelib chiqib, birinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularning qalbiga insonpavarlik va odimiylilik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarga madakor bo’lishi zarurligi ko’rsatilgan. Ikkinchidan, O’zbekistonning shonli o’tishi va buyuk kelajagini uzviy bog’lanib turish orqali bizni ulug’ ajdodlarimizning boqiy merosining munosib vorislari deb his etishga samarali ta’sir etmoqda. (15-bet).

Milliy g’oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotiga ta’sir ko’rsatishining muhim omili ekanligini Yurtboshimizning quyidagi fikridan bilib olish mumkin: “Milliy g’oya, milliy mafkura kundalik mashaqqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g’ayratimizga g’ayrat qo’shib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustaxkam ishonch bag’ishlab, ruximizni baland, belimizni baquvvat qilishiga ishonaman” (15 – bet)

Mana keyingi yildan ko’proq vaqt ichida bu sohada amalga oshirilgan ishlar, to’plangan tajriba yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan konseptual g’oyalarning naqadar to’g’riligini isbot qilmoqda.

Demak, milliy g’oya va milliy mafkura ta’sirida elu yurt birlashadi, o’z oldiga buyuk maqsadlar qo’yadi va o’zlari bu vazifani ado etishga qodir bo’ladi.

Yuqoridai ta’kidlab o’tkanimizdek 2- mavzuda “G’oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta’siri” eng dolzarb masalalardan biridir. Bu savolni ilmiy- nazariy

asoslarini bayon etishda o'qituvchi Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi asarlaridan samarali foydalanishi lozim. Masalan, "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin" nomli risolasida quyidagi prinsipi qoidalar asoslab berilgan:

- Mafkuraning har qanday jamiyat uchun zarurligi.
- Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrarligi.
- Qayerda mafkuraviy bo'shliq bo'lsa o'sha yerda begona mafkuraning hukmronlik qilishi mumkinligi; (4 – bet).
- Tabiatda ham, jamiyatda ham vakum bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmasanidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmasligi (7 – bet)


Shubhasiz bu prinsipial qoida – talablar, xulosalar mafkuraning inson va jamiyat hayotiga samarali ta'sir etishi to'g'risida bilimga ega bo'lishda muhim ahamiyatga ega.

Inson va jamiyat hayotining samarali rivojiga ta'sir etuvchi g'oya va mafkuraning hususiyatlari to'g'risida Islom Karimov shunday deydi:

"Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq – ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman" (11-bet).

Mafkuraning inson va jamiyat hayotiga ta'siri to'g'risida ma'lumot berishda Islom Karimovning quyidagi fikridan foydalanish o'rinnlidir. "Mening fikrimcha, mafkuraning hayotiyligi uning xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'lik mos bo'lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi". (Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". 6-bet)

Darsda 2-savolning mazmunini ochib berishda jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatayotgan g'oyalar va mafkuralar to'g'risida ham to'xtab o'tish zarur.



G'oyalar turlari ustida to'xtalib, Prezident Islom Karimov shunday deydi: "Aslida mening nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kirishadi. Afsus bilan ta'kidlash lozim: tarix tajribasi

shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit inistiklari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'atib berish osonroq".¹

Biz o'rganayotgan fanning asosiy tushunchalaridan biri bo'lган bunyodkor g'oya ham Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oyani anglatadi.

Bunyodkorlik g'oyasi insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanoat, kelajakka barqaror ishonch bag'ishlaydi. Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalar tug'ilaveradi.

Bunyodkor g'oya birinchi marta Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha sifatida "jamiyat va odamlarni turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oya" deb ta'riflangan.

"Milliy g'oya va istiqlol mafkursi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no mazmunini teran anglab yetishga xizmat qilsin". (Islom Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. 9-jild. T. "O'zbekiston", 2001, 221-222-betlar). Darhaqiqat, faqat bunyodkor g'oyagina ezgulikka yo'naltirilgan bo'ladi.

- inson ezgulikka yetish, millatlar va davlatlar esa, ozodlik va mustaqillikka erishishi uchun intiladi;
- adolat va haqiqat tantanasi yo'lida kurashadi;
- buyuk tarixiy g'alabalarni qo'lga kiritadi.

Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'zida gumanizm talablarini aks ettiradigan, inson kamolatiga, jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga, xalqning iroda va intilishlariga xizmat qiladigan, uni jipslashtirib, oliv maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar bunyodkor g'oyalardir.

Vatanni sevish, yurt tinchligini asrash, xalq farovonligi yo'lida kurashish – bunyodkor g'oyalarning ma'no-mazmunini belgilaydi. Talabalar bunyodkor g'oyalarning mazmuni bilan yanada chuqurroq tanishib chiqishlari uchun Prezidentimizning asarlariga ko'proq murojat qilishi lozim.

"Bizning eng ulug' maqsadimiz – deydi Islom Karimov, - eng ulug' g'oyamiz shuki, O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a - yurish"². Mamlakatimiz hayotida o'z ifodasiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Darsda vayronkor (buzg'unchi) g'oyaning o'ziga xos hususiyatlarini ochib berish uchun, bu tushunchaning mazmuniga talabalar diqqatini qaratish lozim. Vayronkor g'oya – **birinchidan**, bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha ekanligini tushuntirish kerak. **Ikkinchidan**, insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan,

¹ Qarang. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 10-bet.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008. 76-bet.

odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalardir. Mazkur mavzu bo'yicha tuzilgan rejaning 2 savoliga oid qator masalalar, masalan vayronkor g'oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga salbiy ta'sirini chuqurroq o'rganishda Islom Karimovning – "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" (10 – 22 betlar) "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni- millat qilishga xizmat etsin" (8-18 betlar) risolalar muhim ahamiyatga ega.

Ushbu mavzuda diniy aqidaparastlik, fashizm, bolshevizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, tajavuzkor millatchilik irqchilik, terrorizm kabi qator izmlarning reaksiyon mohiyatini ochib tashlashda Prezident Islom Karimovning – "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (T: 1997 y.) nomli asaridan foydalanish imkoniyatlar katta. Masalan, diniy ekstremizm va fundamentalizmning reaksiyon moxiyati (33-48-betlar) chuqur tahlil qilingan. Yurtboshimiz dindan muayyan siyosiy maqsadlar yo'lida foydalanishga urinishlarni keskin tanqid qilib: "Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, ahloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdomiz" deydi. (44 – bet)

O'zbekistonga nisbatan islam fundamentalizm – aqidaparastlikning tahdidi haqida to'xtalib Yurtboshimiz shunday deydi: "Aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda ko'rinoqda. Yaxshilik yo'lidagi o'zgarishlarning ustuvor shartlari bo'lgan barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo'lidagi urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Aqidaparastlarning maqsadi demokratiyani, dunyoviy davlatni, ko'p millatni va ko'p dinli jamiyatni obro'ysizlantirishdan iborat" (44-45-betlar).

Buyuk davlatchilik shavinizim va agrasiv millatchilik to'g'risidagi Islom Karimovning qarashlari ushbu kitobning 49-68-betlarda berilgan. "Buyuk davlatchilik shovinizim boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Uning ittifoqchilari harbiy imperiyalardir" - deb ta'kidlaydi Islom Karimov (53-bet)

Vayronkor g'oyalarning vujudga kelishiga esa buzg'unchi intilishlar sabab bo'ladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, ya'ni doimo hushyor va ogoh bo'lib yashamoq, bunyodkor g'oyalarga xizmat qilmoq hayotning asosiy zarurati va sharti bo'lib qolaveradi.

Foyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizzon bosqini, chor istilosini davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'l kamizning asrlab qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzlusiz jarayondir. Bu jarayonida turli g'oyalalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalalar asos bo'lsa, vayronkor g'oyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar keltiradi. Bu esa, o'z navbatida,

g'oyaviy jarayonlar tarixini o'rganish, ular zamiridagi mazmun – mohiyatini bilib olishni zaruriyatga aylantiradi.

Sivilizatsiyalar tarixida yovuz g'oya va tajovuzkor mafkuralar hamisha bunyodkor g'oyalarga qarshi kurashib kelgan. Bunyodkor g'oyaning aksi bo'lган vayronkor yoki buzg'unchi g'oya yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuasi bo'lib, insonlarni tubanlikka yetaklaydi, jamiyatni halokatga mahkum etadi.

Buzg'unchi g'oya va mafkuralar xalqlar boshiga cheksiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Shovinizim bilan aggressiv millatchilikning qarashmasi bo'lган buyuk davlatchilik bugungi kunda nimalarda namoyon bo'layotganligi haqidagi Islom Karimovning fikr va mulohozalari bilan "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobining 49-68-betlarda tanishib olish mumkin.

Tayanch so'zlar Bog'liqlik, mushtaraklik, mafkuraviy bo'shliq, xilma-xillik, sivilizatsiya, aqidaparastlik daxriylik, bag'rikenglik, taraqqiyot vahz.

Takrorlash uchun savollar

1. Muayyan fikrlar, g'oyalar va mafkuralarning jamiyat taraqqiyotiga ta'sir darajasi qaysi omillarga bog'liq?
2. Mafkurasiz jamiyat rivojlanishi mumkinmi?
3. Foya bilan mafkura o'rtaqidagi bog'liqliknini siz nimalarda ko'rishingiz mumkin?
4. Mafkuraviy bo'shliq haqida qanday bo'shliqni anglatadi? Bu haqda Islom Karimovning qaysi asarlaridan xabardorsiz?
5. Jamiyatda fikrlar xilma-xilligi nima uchun kerak?
6. Mafkuralarning namoyon bo'lish shakllari.
7. Qanday mafkura jamiyat taraqqiyotiga ulkan ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?
8. Vayronkor g'oyalar kimlarning manfaatiga xizmat qiladi?
9. Fikrga qarshi fikr bildirish uchun nima qilish kerak?

Referat mavzulari

1. "Foya" va "mafcura"ning "yagona hukmkor mafcura" tushunchasidan farqi.
2. Inson va jamiyat hayotida g'oyalar, fikrlar xilma-xilligi va ularning ahamiyati.
3. Foya va mafkuraning inson va jamiyat hayotiga ta'siri.
4. Jamiyat mafkurasining xalqni-xalq millatni-millat etishdagi o'rni (Islom Karimovning – Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq millatni-millat qilishga xizmat etsin" nomli risolasi bo'yicha)
5. Bunyodkor g'oyalarning tarixiy-falsafiy ildizlari.
6. Vayronkor g'oya haqida Islom Karimov.
7. Diniy aqidaparastlikning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri.

3-Mavzu. Glaballashuv sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi. Reja

1. Jamiyat hayotining glaballashuvi bugungi Glaballashuv jarayonida dunyoning mafkuraviy manzarasi.
2. Glaballashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi
3. Mafkuraviy jarayonlarning glaballashuvi

Mazkur mavzu “Milliy istiqlol g’oyasi: tushunchalar va tamoyillar” fanida eng dolzarbli bilan ajralib turadi. Buni biz Prezidentimiz Islom Karimovning “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar” risolasidagi so’z boshida ta’kidlagan quyidagi fikridan yaqqol bilib olishimiz mumkin. “Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, infarmatsion inqilobiy, jarayonlari, jahon maydonlarini ta’sir o’tkazish maqsadida bo’lib olishga intilish, bu maydonlardagi o’zaro kurash sharoitida mafkuraviy siyosatning ahamiyati va o’rni naqadar ortib boryotganini tushuntirib o’tirishning hojati yo’q, deb o’ylayman”¹ deydi Yurtboshimiz. Globallashuv atamasining mazmun va mohiyatini hamda globallashuv jarayonlarning keng qamrovligi, ularning ijobiy va salbiy ta’sirini o’rganish, tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Mavzudagi birinchi savol globallashuv va aksilglobalizm tushunchalarining mohiyatiga javobini bayon etishdan oldin o’qituvchi (ma’ruzachi) talabalar diqqatini qaratishi lozim. Globallashuv atamasining lug’aviy ma’nosи voqeа-hodisalarning dunyo miqiyosi darajasiga ko’tarilishini anglatadi. Afsonaviy Nux to’foni, jahon urushlari yoki zamonaviy kompyuterlashuv, xalqaro terrorizm globallashuvning yorqin namunalaridir. Garchi g’ayritabiyy bo’lsada, kommunizm g’oyasi ham global xomhayol edi. Globallashuvning tariflari ko’p. Ularni umumlashtirib, globallashuv uzlusiz davom etadigan tarixiy, umumiylashish, milliy hududlarni tan olmaydigan jarayondir deb, ta’riflash mumkin.

Biz yuqorida insoniyat tarixi g’oyalari kurashidan iborat dedik. Tabiiyki, globallashuv jarayonining tarafdarlari kabi, unga qarshi g’oyalarni qo’llab-quvvatlovchilar ham bor. Ular aksilglobalistlar, g’oyalari esa aksilglobalizmdir. Aksilglobalistlar globallashuvni yangi jahon urushi sifatida talqin etib, unga qarshi chiqadilar, buning uchun ma’lum bir sabablar, masalan, xalqaro terrorizmni ko’rsatdilar. Globallashuvning salbiy tomonlari ham bor. Biroq u to’xtatib bo’lmaydigan jarayondir.

Hozirda globalistlar ham, aksilglobalistlar ham asosiy e’tiborni iqtisodiyot sohalariga qaratib, globallashuv jarayonlariga mafkura, ma’naviyatining ta’siri masalalariga deyarli e’tibor berishmayapti. Aslida globallashuv insoniyatni halokatga olib keladimi yoki farovon hayotgami – bunda mafkura va ma’naviyat asosiy ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, globallashuv jarayonlarida milliy g’oyaga ehtiyojning ortishi, avvalo, ana shu bilan belgilanadi. Rejadagi 1-savolni yoritishda Islom Karimov asarlarining o’rni katta globallashuv jarayonlarining mazmun va mohiyati Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli kitobining 110–119-betlarida atroflicha talqin qilingan. Ulardan ayrim parchalarni

¹ Qarang. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. T.9. T.: “O’zbekiston” 2001, 223-bet.

keltirish lozim topildi. “Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi hususida gapirganda shuni ob’ektiv tan olish keraki, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo’shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqasi va hududlar bilan shunday chambarchas bog’lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobjiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas”. (111-bet)

Ko’pgina adabiyotlarda globallashuv jarayonining faqat salbiy oqibatlari to’g’risida so’z boradi. Bizningcha bu jarayonga bir tomonlama yondashib bo’lmaydi. Ma’lumki, globallashuv jarayonlari ijobjiy va salbiy ta’sir etish hususiyatiga ega. Bu masala bo’yicha Islom Karimov shunday deydi: “Har bir ijtimoiy hodisaning ijobjiy va salbiy tomoni bo’lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g’oyat o’tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko’rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o’rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarning kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko’plab yangi ish o’rinlarining yaratilishi, zamonaviy komunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg’onuvchi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o’zaro yordam ko’rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasi globallashuv tufayli erishilmoqda”. (111-112-betlar)

Ushbu asarda globallashuv jarayonning salbiy hususiyatlari haqida ham teran fikrlar berilgan. “Globallashuv jarayonining yana bir o’ziga xos jihatni shundan iboratki, - deb ta’kidlaydi Islom Karimov – hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o’tkazishning nihoyatda o’tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog’lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi muqarrar”. (113-bet)

Globallashuv jarayonida dunyoning mafkuraviy manzarasi hozirgi davr dunyoda g’oyaviy qarama – qarshiliklar tarixda hech ko’rilmagan olamshumul miqiyos va murakkab tus olgani bois, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchli bo’lib boryotganligi bilan xarakterlanadi.

Dunyoning hududiy jihatdan turli mintaqasi va qit’alarga bo’linishi geografiya darslaridan yaxshi bilamiz. Jahonning siyosiy xaratasiga qarab va mavjud davlatlarning chegaralarini hisobga olgan holda ham yer yuzining hozirgi siyosiy – hududiy bo’linishini bemalol tasavvur qila olamiz.

Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va turli bedavo kasalliklar, ekologik falokatlar, ma’naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga, bu dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensitivlashuvi, universal texnologiyalari bilan bog’liq umumbashariy jarayonlar ham kuchaymoqda.

Hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o’z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ko’payib bormoqda. Tajovuzkor millatchilik va shovinizim, neofashizm, va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson va ongini

egallash uchun kurash tobora kuchayib, global xarakter kasb etib bormoqda. Bu xol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan ko'plab mafkura shakllari barqarorlik va taraqqiyotiga tahdid solmoqda. Ularning asosiy shakllari va yo'nalishlari Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarining 33-110-betlarida batafsil tahlil etilgan.

Buyuk davlatchilik shovinizmini va agressiv millatchilikni qanday tushunish mumkin deyilgan savolga ushbu kitobning 52 – betida shunday mazmunda javob berilgan: "Tarixiy tajribaga asoslanib bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy xukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin.

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rabi turgan jo'g'rofiy – siyosiy makonda ham o'zining mutloq hukmronligini o'rnatish uchun kurashida namoyon bo'ladi".

Shunday qilib, bu asar bilan tanishib chiqar ekanmiz, biz nafaqat XX, balki XXI asrga, umuman, insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan kuchlar, dunyoning mafrukaviy manzarasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lamiz.

2-savol bo'yicha shuni aytish joizki, biz xohlaysizmi yoki yo'q, jamiyat hayotiga globallashuv jarayoni ta'sir etadi. Globallashuv turli xalqlar hayoti, ongi va tafakkuri ishonch va e'tiqodga ta'sir etadi. Hozirgi davrda inson ongi va qalbi uchun kurash davom etmoqda. Shu bois glaballashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyoj tug'iladi. Chunki, milliy g'oya turli xalqlar, millatlarning o'zligini saqlab qolishi hamda jahon hamjamiyatida o'z o'rniiga ega bo'lishining muhim omili hisoblanadi.

Bu masalalarni chuqurroq aniqlashda Islom Karimovning – "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etish" risolasining 10-15-betlaridan samarali foydalanish o'rnlidir.

Milliy g'oyaga ehtiyojning ortishining sababini Islom Karimovning quyidagi fikridan bilib olish mumkin: "Bizning eng ulug' maqsadimiz, eng ulug' g'oyamiz shuki, O'zbekistoning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurish" (Islom Karimov – "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" 76-bet)

Mafkuraviy jarayonlarning glaballashuvini o'rganishda Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. (Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T. 6, 31-40, 125-135, 149-162-betlar); "Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin". T.8, 84-102-betlar, "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". T. 8, 489-508-betlar; "Erkin yurt erkini bermas". T.9, 70-48-betlar; "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" 71-76-betlar.

Ana shu sanab o'tilgan manbalarda mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi sabablari va oqibatlariga doir fikrlar berilgan. Ushbu 3-savolga daxldor bo'lган qator masalalar, masalan, ikki qutbli dunyoning barham topishi, g'oyaviy kurashning o'zgarishi, inson ongi va qalbini egallash dunyonni bo'lib olishga bo'layotgan

urinishlar, uning turli xil yo'llari, ko'rinishlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy xulosalar Islom Karimov asarlarida o'z ifodasini topgan.

Mazkur mavzudagi mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi savoliga doir javoblarni bayon etishning ikkinchi qismida talabalarni quyidagi materiallar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidin, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi tushunchasiga izoh berish kerak. Bu – g'oyaviy o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalari tortilganligini, mafkuraviy kurash umumbashariy miqiyos kashf etganini ifodalovchi tushuncha. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotining barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning intengrsiyalashuvi va intensivlashuvida o'z ifodasini topadi.

Ikkinchidan, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan farq qiluvchi ikki yo'nalish-tendensiya mavjud. Ulardan **birinchisi** – insoniyat sivilizatsiyasi tarixda erishgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallahib borishi;

ikkinchisi, millatlar va davlatlarning barcha sohalari bo'yicha rivojlanishidagi beqarorlik va xavf tug'dirayotgan salbiy hodisalarining mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelishi. Bu jarayon xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda.

Uchinchidan, biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada turli mafkuraviy markazlarning bosim ta'siri kuchaymoqda.

To'rtinchidan, g'oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovvuzlarning oldini olish uchun har bir davlat, millat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini ta'minlaydigan choratadbirlarni ko'rishi ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

Tayanch so'zlar: "globallashuv", "jarayon", "aqidaparstlik", "shovinizm", "manzara", "qutblanish", "tahdid".

Takrorlash uchun savollar

1. Globallashuv jarayonlari masalasi Prezident Islom Karimovning qaysi asarida bayon etilgan?
2. Dunyoning mafkuraviy manzarasini Siz qanday tasavvur etasiz?
3. Millatlarning o'zligini saqlashning omillari.
4. Nima uchun ikki qutbli dunyo barham topdi?
5. G'oyaviy kurashning o'zgarishiga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?

Referat mavzulari

1. Jamiyat hayotining globallashuvi
4. Islom Karimov globallashuv jarayonlarining hususiyatlari to'g'risida.
5. Globallashuv jarayonida milliy g'oyaga ehtiyojning ortib borishi.
6. Sharq va G'arb mamlakatlari hayotida milliy g'oya ko'rinishlari.

4- mavzu. Mafkuraviy imunitetni shakllantirish – xavfsizlik va barqarorlik omili Reja

1. Mafkuraviy immunitet – jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlashning omili.
2. O'zbekiston va uning mustaqilligi, xavfsizligi hamda barqarorligiga xavf tug'dirayotgan mafkuraviy tahdidlar.
3. Mafkuraviy xavfsizlikka intilish – ijtimoiy siyosiy barqarorlik omili.

Ma'lumki, sobiq ittifoqning parchalanishi oqibatida mafkura yakkaxokimligiga chek qo'yildi. Milliy istiqlol g'oyasi mamlakatimizda biron biron mafkuraning mutloqlashuvi, yakkahokim aqidaga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Lekin dunyoda mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi sharoitida mafkuraviy tajovuzlarning oldini olish uchun har bir millat va davlat o'zining g'oyaviy mafkuraviy daxlsizligini ta'minlaydigan chora – tadbirlarni ko'rishi zaruriyatga aylanib qolmoqda. Bunday sharoitda mafkuraviy immunitetni shakllantirish xavfsizlik va barqarorlik omili sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda.

1. Mafkuraviy immunitet – jamiyatda xavfsizlikni ta'minlashning omili.

Jahon taraqqiyotida hozirgi davr – bunyodkor va buzg'unchi g'oyalarning o'zaro kurashi keskin kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, nama uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? – degan savol tug'uladi. Chunki hozirgi davrda qurol bilan jahonni zabit etishning eskicha yo'llari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Aytaylik, biror buyuk davlat yadro quroli bilan dunyoni egallashga intilsa, yadroviy urush oqibati uning o'zini xam yakson qiladi. Bunday paytda g'oyalar kurashi jahonni xududiy jixatdan bo'lmasada, mafkuraviy jihatdan zabit etishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Shuning uchun muayyan g'oya tom ma'noda bunyodkor yoki vayronkor g'oya bo'lishi uchun kishilar ongiga egallashi, to'g'rirog'i, ularning qalbidan joy olishi shart aks xolda, har qanday g'oya faqat muayyan xabar yoki axborot sifatida saqlanib qoladi, xolos.

Mafkuraviy ta'sir va tahididlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baholash hususiyatlarini yaqqol ko'rsatish uchun O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy iste'molga bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida "Mafkuraviy immunitet", "Mafkuraviy profilaktika" kabilar bor. Ana shu tushunchalarning mazmuni oydinlashtirilganda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yaqqolroq tasavvur qilish imkonи tug'iladi.

Yer yuzining turli mintaqalar xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha ifodalanganda, mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda. Xo'sh, mafkuraviy poligon deganda nimani tushunamiz?

Poligon (yunon. serqirra degan ma'noni bildiradi) harbiy termin ekanligiga o'rganib qolganmiz. Odatta, poligon deganda qurol-aslahha va texnikani sinash, qo'shinchilarni harbiy tayyorgarlikdan o'tkazish yoki harbiy sohada mashq va tadqiqotlar olib borish uchun mo'ljallangan maxsus maydon tushuniladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mafkuraviy polignonlarning hususiyatlar haqida nima deyish mumkin? Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zga hududlarni zabit etish maqsadida ishlataladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini ko'ramiz. U nayzalardan tortib, to avtomatik qurollargacha, zambaraklardan to yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qit'alararo ballistik

raketalargacha bu uzoq takomil yo'lini bosib o'tdi. Bu quollar bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'z hududlarini zabit etilgan, qarash va kayfiyatları “ma'qul” yo'nalişiga o'zgartilgan aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mafkura poligonlari to'g'risida gapirilganida o'qituvchi Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” nomli kitobining 13–118-betlaridagi materiallardan foydalanishi o'rinnlidir. “...bugungi zamonda mafkura poligonlari, - deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz,- Yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega”. (113-bet) Bu qisqa, lekin keng ma'noli xulosaning ma'nosni shundan iboratki agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish nihoyatda qiyinligi bildirilgan. “Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy – milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinxona ko'rinishidagi ta'sirga bardosh berishi amrimahol”¹ deydi Islom Karimov.

Mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayriislomiy g'oyalarni tarqatishga harakat qilgan kimsalar ana shunday g'arazli maqsadlarini, ya'ni odamlar, ayniqsasa, yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chatlatib yuborishini ko'zda tutgan edilar. Chet ellarda ana shunday “ta'lim” olgan vahhobiylar, shuningdek, “hizbut tahrir”chilarning yoshlarimiz ongini zaharlash yo'lidagi harakatlarini ham aynan shunday baholash mumkin. Mafkura poligonlarida sinovdan o'tayotgan, mohiyatan g'ayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun alohida mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim.

Mafkuraviy immunitetni hosil qilishning ob'ektiv zarurligi Islom Karimovning qator asarlarida jumladan “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” nomli kitobida ilmiy nazariy va metodologik jihatdan tahlil etilgan. Hozirgi davrda ya'ni turli mafkuralar tortishuvi keskinlashib borayotgan bir tarixiy sharoitda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaxolatga qarshi ma'rifat bilan kurashishda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

“Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga ota- bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbiga va ongiga mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur” deb ta'kidlaydi. Islom Karimov (119-bet).

Yoshlarimiz ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarurligi g'oyasi asosida ikkita piravard maqsad yotganligini ya'ni, Prezidentimiz ko'zlangan birinchi maqsad-bu toki yoshlarimiz kelajakda milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyonи chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishishlari, ikkinchi maqsad – har qanday johil aqidaparstlarning “da'vati”, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutloq begona yosh g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydigan insonlar bo'lib yetishishlari.

¹ Qarang. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. 113 – bet.

Immunitet – tibbiyot atamasi bo’lib, organizmning turli kasalliklardan o’zini himoya qila olish qobiliyatini anglatadi. Mafkuraviy immunitet – shaxs ongi va tafakkurini turli buzg’unchi g’oyalardan himoya qila olishning eng asosiy shakli bo’lib, uni yaratish milliy istiqlol g’oyasi fanining muhim vazifalaridan biridir.

Kishi jismonan qancha baquvvat bo’lsa, uning organizmi turli kasalliklarni ular avj olmay tez bartaraf eta oladi. Shuningdek, inson ongi qancha sog’lom bo’lsa, u turli buzg’unchi g’oyalar ta’siriga berilmaydi. Organizm mikroblarni yengsa, ong yovuz fikrlar, tashviqodlarni bartaraf etadi. Mafkuraviy immunitetning asosiy quroli ob’ektiv bilimlar va ma’naviy qadriyatlardir.

Immunitet (lat. Immunitas – ozod bo’lish, qutilish) deganda, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o’zini turli xususiyatlarga ega ta’sirlardan, uni tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo’lgan jarayonlar majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli yuqumli kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi.

Insonning butun hayoti davomida tashqi ta’sirlarga aks javob sifatida orttirilgan immunitet tizimi shakllanadi.

Profilaktika ham tibbiyot atamasi bo’lib, kasallikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ifodalaydi. Mafkuraviy profilaktika esa ongdagi mafkuraviy bo’shliqni to’ldirishga qaratilgan g’oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy-mafkuraviy ishlar majmuasi, yaxlit g’oyaviy tizimdir. Umuman, ko’pgina tibbiyot atamalarini mafkura sohasida ko’chma ma’noda juda samarali qo’llash mumkin. Chunki tibbiyot insonning jismoniy, ilg’or mafkura ma’naviy sog’lig’i uchun kurashadi. Birinchidan, bu tushunchalar haqida kengroq to’xtaydigan bo’lsak insonning birinchidan umumiyl immuniteti tug’ma bo’lsa, mafkuraviy immunitet esa shakllantirilib boriladi. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun alohida xususiyatlarga ega bo’ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlik ta’minlanadi.

Xo’sh, mafkuraviy immunitet tizimi o’z ichiga nimalarni oladi? Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko’p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agrassiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafдорлари ham muayyan “bilim”larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomondan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob’ektiv bo’lishi, voqelikni to’g’ri va to’liq aks ettirishi, inson ma’naviyatini boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinchini tomondan, bu bilimlar o’z mohiyat e’tiboriga ko’ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog’liq bo’lmog’i kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob’ektiv va chuqr bo’lsa, uning zamirida vujudga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo’ladi. Shu o’rinda Yurtbosimizning quyidagi jfikrlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. “...bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo’nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’sirini o’rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo’lgan zararli g’oyalarni va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolar qalbida milliy tafakkur va sog’lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyatni kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o’z fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo’lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin” deb ta’kidlanadi ushbu kitobda (127-bet). Kitobda, shuningdek, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalab etkazishda ma’naviy-ma’rifiy targ’ibotning o’rni to’g’risida shunday deyilgan: “Bu borada ma’naviy-ma’rifiy targ’ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarni keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo’llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushib olishimiz zarur” (127-bet). Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to’liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki unsur mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniyat-ma’rifiy sohalardagi aniq mo’ljal va maqsadlar tizimi bilan bog’liq. Ya’ni har bir kishi kabi xalq, davlat va jamiyatning ham aniq maqsadi bo’lishi shart. Shu bilan birga, bu maqsad anglangan, uni amalga oshirishda sobit-qadamlik darkor. Ana shunday aniq tizim bo’lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo’lsin, goh pinhona ko’rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amrimaholdir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantiriшда mafkuraviy profilaktikaning o’rni katta. Zero, u o’z mohiyatiga ko’ra yot g’oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo’qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuuni o’z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g’oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy ishlar majmuuni, bir so’z bilan aytganda, bu sohada to’g’ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

“Millat bor ekan, miliy davlat bor ekan, uning mustaqilliigi va erkinligiga, an’ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o’z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o’z manfaati yo’lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar”, - deb yozadi Prezidentimiz. Shunday ekan, voyaga yetmagan har bir farzanlarimizni ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, bir so’z bilan aytganda, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayt barpo etishning asosiy shartlaridan biri bo’lib qolaveradi.

Shunday qilib Yurtboshimiz mazkur kitobida ushbu mavzuga tegishli quyidagi yo’nalishlardagi fikr va mulohazalari o’z ifodasini topgan.

1. Globallashuv jarayonlarning ijobiylari va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi bir tomonidan, globallashuv davlatlar, xalqlar o’rtasidagi integratsiya va hamkorlik shartnomalarining kuchayishiga, ikkinchi tomonidan esa mafkuraviy ta’sir o’tkazishning nihoyatda o’tkir quroliga aylanib borayotganligi.

2. Davlatimiz kelajagini o’z qabig’imizga o’ralib kelgan xolda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o’zlashtirgan xolda tasavvur etishimiz lozimligi.

3. Yoshlarimizing ma’naviy olamida bo’shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog’lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg’usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarurligi.

4. Biz o'z farzandlarimizni ona Vatanga muxabbat, boy tariximizga, ota – bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarurligi.

Yuqorida savnab o'tilgan ana shu vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy fanlarning o'rni ham juda katta ekanligi ta'kidlab o'tilgan. (Qarang 113- 127-betlar).

2. O'zbekiston mustaqilligi, xavfsizligi hamda barqarorligiga xavf tug'diradigan mafkuraviy tahdidlar.

Diniy ekstremizm fundamentalizm, terrorizm, buyuk davlat shovinizm kabi global mafkuralar bugungi kunda O'zbekiston hayoti va kelajagiga ham jiddiy xavf tug'dirmoqda.

XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqalar ro'y berdi. Uning siyosiy xaritasi, jumladan, Markaziy Osiyoning manzarasi tubdan o'zgarib ketdi. Sobiq SSSRning parchalanishi, uning hukmron mafkurasining barbod bo'lishi va Markaziy Osiyodagi respublikalarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi mintaqamizda nafaqat ijtimoiy-siyosiy jihatdan, balki g'oyaviy jihatdan ham yangi mafkuraviy vaziyatni vujudga keltiradi. Ushbu vaziyatning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat edi:

Birinchidan, sobiq sho'rolar hukmronligi sharoitida kommunistik mafkura, mintaqa xalqlari azaldan qon-qarindosh bo'lishlariga qaramasdan, ularni zo'rmazo'raki "birlashtirib" turgan edi. U mintaqa xalqlari ongiga zo'ravonlik bilan "SSSR – yagona Vatan" va "sovet xalqi – yangi tarixiy "birlik" - degan tushunchalarni singdirishga zo'r berib urinar edi. Mintaqa xalqlari bundan qanchalik norozi bo'lmasin, o'zlarining tarixiy va ma'naviy yaqinligiga intilmasin, ammo bu intilishlarga nisbatan mafkuraviy tazyiq benihoya kuchli edi. Shunga qaramasdan mintaqada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi yangi ma'naviy-mafkuraviy muhitni shakllantirish ehtiyoji ham oshib bordi. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagani kabi: «SSSR parchalanib ketgandan keyin bizning irodamiz yoki intilishimizga bog'liq bo'limgan holda O'zbekiston amalda frond yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida – Afg'oniston va Tojikistonda so'nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan ikkita tanglik o'chog'i alanga olib turibdi».¹

Afg'onistonda urush alangasi o'chmagani faqat bizning mamlakatimiz uchungina emas, balki butun mintaqadagi barcha mamlakatlar uchun ham katta xavf-xatarni vujudga keltirdi.

Ana shunday tarixiy vaziyatda O'zbekiston o'zining iqtisodiy salohiyati, xomashyo resurslarga boyligi, ishchi kuchi va demokratik imkoniyatlari, ko'p jihatdan geopolitik joylashuviga ko'ra ham, mintaqada yetakchi o'rinda turganligi bilan ajralib turdi. Binobarin, O'zbekistonga nisbatan bo'ladigan har qanday xavf-xatar, albatta, butun mintaqaga ta'sir qilishi mumkin edi. Shu ma'noda ham turli siyosiy kuchlar va harakatlar Afg'onistondagi urush olvini kuchaytirish va minqadagi vaziyatni murakkablashtirish hamda mintaqa davlatlarini unga jalb qilishning turli yo'llarini va uslublarini ishga solmoqda edi.

O'zbekiston va uning mustaqilligiga xavf solayotgan tahdidlardan biri diniy ekstremizm bo'lib uni keltirib chiqaruvchi omillarini ekstremizm (lot. Extremus – o'ta) – ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: "O'zbekiston", 1998. 429-bet.

tadbirlar, fikr va qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir. Biz 3-mavzuda bu haqda qisqacha to'xtab o'tgan edik. 4-mavzuda esa bu savolga kengroq to'xtash lozim topildi.

Ekstremizm mazmuniga ko'ra – diniy va dunyoviy; namoyon bo'lishiga ko'ra -hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Ekstremistik qarashlar juda chuqur ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hududini tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy ko'rinishlari mavjud bo'lgani holda diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistik ruhdagi qarashlarni katoliklar, protestantlar, pravoslavlар orasida ham uchratish mumkin.

Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan. Diniy ekstremistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar. Bu esa, mustaqillikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov hisoblanadi.

Ekstremizm turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin – bolshevizm, fashizm, diniy ekstremizm. Bunga g'oyalar, harakatlar, tashkilotlar, moddiy hamda tashkiliy tuzilmalar va ularning faoliyatlarini kiritish mumkin. Lekin, eng muhimi va xavflisi, u terrorizmni o'z ichiga oladi. Ekstremizm qanday nomlanmasin yoki qanday ko'rinishga ega bo'lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarni shakllantirish orqali hokimiyat tepasiga kelishdir. Shu o'rinda islom fundamentalizm tushunchasi haqida ham to'xtalish zarur. Bu atama o'z ichiga barcha islom diniga xos bo'lgan qadriyatlarni, urf-odatlar va belgilarni qamrab olmaydi. Bu tushuncha faqat islom diniy dunyoqarashini yagona haqiqat manbasi deb tushunganlar va bu haqiqatga yetishishning yagona yo'li esa siyosiy hokimiyatga erishish orqali jamiyatni to'la shariat qonun-qoidalari asosida qayta tashkil qilish mumkin, deb biluvchilarning qarashlarini ifodalaydi.

Islom diniy ekstremizmi o'zining ikki xususiyat bilan boshqa oqimlardan ajralib turadi:

Ularning aqidalariga ko'ra, go'yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari asl islomiy tuslarini yo'qotganlar va johiliya (islomdan avvalgi) asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv mavjud hukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga "asos" bo'lib xizmat qiladi.

Ular go'yo, "haqiqiy" musulmonlar. O'zlarining hokimiyatga kelishlari uchun barpo bo'lajak "islomiy tartibni" qaror toptirishning yagona yo'li keskin va agrassiv harakat qilishdadir, deb hisoblaydilar.

Aslida, ekstremizm g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad – diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, pirovard natijada hokimiyatni qo'lga kiritishdan iborat.

Yuqorida qisqacha bayon etilgan dolzarb masalalarning asl mazmun-mohiyatini ochib berishda Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari kafolatlari" nomli asari (19-84-betlar). Shuningdek, "Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va kelajakka

ishonchdir” (8-9-betlar); “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin” (28-30-betlar). Muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

“Diniy ekstremizm va fundamentalizm bizning mintaqamiz uchun tug’dirishi mumkin bo’lgan xavf-xatarlarni bevosita tahlil qilishga kirishidan oldin e’tiborni odamlarning diniy e’tiqodlari bilan bog’liq har qanday muammo g’oyat nozik ekanligiga, ularning diniy-ma’naviy qadriyatlari bilan shiorlardan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko’zlayotgan, dinga aloqasi bo’lman siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o’rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratishni istardim” (35-bet).

3. Mafkuraviy xavfsizlikka intilish ijtimoiy-siyosiy barqarorlik omili.

Prezidentimiz Islom Karimov O’zbekistonning bu boradagi o’ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha ta’kidlagan: “Respublika aholisi o’rtasida ko’pchilikni tashkil qiladigan o’zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o’z milliy madaniyati va tarixini tiklashdagina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o’ziga xos madaniy – ma’naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o’zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida ma’sul bo’lishdan ham iborat”.

Shubhasiz bunday muhit millatlararo munosabatlarda turli muammolar tug’ilishiga aslo yo’l qo’ymaydigan va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g’oyalarni hamkor va hamjihat bo’lib amalga oshirishda, shuningdek mafkuraviy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik g’oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O’zbekiston rivojida qo’lga kiritilgan eng katta tarixiy yutuqlardan biridir. Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo’l bilan yechish, millatlararo munosabatlarni uyg’unlashtirish chora – tadbirlarni ko’rdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning ko’p millatli xalqi ongida “O’zbekiston – yagona Vatan” degan g’oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg’usini shallantirish bu borada ishlarning muhim yo’nalishiga aylandi.

Yurtboshimiz O’zbekistonning milliy siyosatini amalga oshirgan vaqtida millatlararo munosabatlar jarayonida milliy va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soladigan mojaroli vaziyatlarga yo’l qo’yilmaslik uchun quyidagi asosiy qoidalarga amal qilish zarurligini ko’rsatib o’tgan edi:

“Birinchidan, davlatning etnik siyosati shaxs huquqlarini himoya qilishning ustuvor bo’lishiga asoslanishi darkor, shuningdek milliy ozchilikning huquqlari ham kansitimasligi shart.

Ikkinchidan davlatning etnik siyosatidagi bosh yo’l millatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi lozim”¹

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “O’zbekiston xalqini millatidan qat’iy nazar, O’zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”, deb aniq belgilab qo’yilgan. “O’zbekiston xalqi” tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo’lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o’rtasidagi o’zaro hurmat do’stlik va hamjamiyat uchun ma’naviy asos bo’lib

¹ Qarang. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoti kafolatlari. 84 – bet.

xizmat qiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyamizda “O’zbekiston Respublikasi o’z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilishni ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, - deb belgilab qo’yilgan.¹

Xususan, 1992 yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko’maklashish maqsadida O’zbekiston Respublikasi “Baynalminal madaniyat” markazi tashkil etilgani bunga misol bo’ladi. O’shanda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti endilikda 100 dan ortiq markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarining o’z ona tilida o’qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliv o’quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko’plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko’rsatuvalar va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa ishlar ham bu boradagi samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Faqat millatlararo totuvlik g’oyasiga tayanib, umumiy maqsadlar yo’lida hamjihat bo’lib, Vatan ravnaqi, yurt tinchlik va xalq faravonligidek oljanob maqsadlarga erishish mumkin.

Aniq fanlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, har qanday o’simlik jonivor ham uning hayotiga nimadir tahdid solsa tabiiy ravishda himoyaga chog’lanar ekan. Modomiki, inson uning oilasi, u yashab turgan vatan va jamiyatga mafkuraviy tahdidlar bor ekan, uning mafkuraviy himoyaga zarurati doimo mavjud bo’ladi.

Milliy istiqlol g’oyasining asosiy vazifalaridan biri ham ana shunday himoya yo’llarini yoshlar ongiga singdirishdan iborat. Bizningcha, mafkuraviy himoya tarixi va bugungi jahon tajribasini yaxshi bilish ana shunday yo’llardandir.

Prezidentimiz Islom Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” nomli asarida mamlakatimizda mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga doir qator fikrlarni bayon etgan.

Mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning shartlaridan biri insonning erkin bo’lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko’zda tutadigan mafkuraviy, g’oyaviy va informatsion xurujlarga qarshi o’z vaqtida tizimli kurash olib borish lozimligi ta’kidlangan (12-14-betlar).

Mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda ma’naviyatni anglash, yoshlarning ma’naviyatini boyitish muhim ahamiyatga ega. Chunki, Yurtboshimiz ta’kidlanganidek, ma’naviyat odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon e’tiqodini butun qiladi. (25-bet)

Ushbu kitobning 119-127-betlarida quyidagi xulosalar berilgan.

1. Turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholtga qarshi ma’rifat bilan kurashish zarurligi.

2. Vatanga muhabbat, farzandlarimizni boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqqadas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, tabir joiz bo’lsa, avvalo uning qalbida va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarurligi. 119-bet

3. Yosh avlodni turli ma’naviy-mafkuraviy xurujlardan himoya qilish maqsadida xudbinlik loqaydlik, milliychilik korrupsiya manfaatparastlikka kabi illatlarga qarshi kurashish zarurligi.

¹ O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 4-modda – T. “O’zbekiston”, 2003. 4-bet.

Ma'lumki, demokratik jamiyatda manfaatlar va dunyoqarashlar turli-tuman bo'ladi. Bunday sharoitda faqat milliy g'oyagina ijtimoiy muvozanatni ta'minlay oladi. Milliy g'oya jamiyat hayotini barqarorlashtiruvchi bonyodkor tizimini yaratishning omili hisoblanadi. Buning sabablari Yurtboshimiz tomonidan ochib berilgan. "Albatta, barchamiz yaxshi tushunamizki, - deydi Islom Karimov, - "milliy g'oya" degan so'z faqat bir millatga mansub bo'lib qolmasdan, mana shu tabarruk diyorimiz – O'zbekiston tuprog'ida yashayotgan, uni o'z ona Vatani deb biladigan barcha millat va elatlarga birdek daxldordir" (Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" 75-bet)

Shunday qilib, mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib o'tish davrining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda jamiyat o'zgarishi bilan uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma'naviy hayot negizlari ham o'zgardi. Yangi milliy g'oya va demokratik ong shakllanadi. Natijada voqeа va hodisalar va jarayonlarga yagona mafkura tamoyillari asosida qarash amaliyotiga barham berildi. Shuningdek, yod g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Ushbu mazmundagi dolzarb masalalarni o'rganishda Islom Karimovning "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" nomli 2-jild, T., "O'zbekiston" 1996, (37-38, 47-56, 58-70, 76-111, 128-143, 210-231, 266-270, 283-287-betlar) asaridan keng foydalanish mumkin.

Islom Karimov 1994 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan bayram qatnashchilariga qarata so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Biz uchun istiqlol – millatmiz, mamlakatimizning jahonda obro'-e'tibori, shon-shavkatini ko'taradigan sog'lom avlodni, har jihatdan barkamol va va fidoyi o'g'il-qizlarni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish va baxtini ko'rishdir" (283-bet).

Prezidentimiz 1993 yil 28 sentabr Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma'ruzasida "Demokratik islohotlar uchun jamiyatning barqarorligi va davlatning xavfsizligi hayotiy zarurdir. Bularsiz boshqa masalalarni amalda hal qilish mumkin emas. O'zbekiston barcha mintaqalarda va avvalo Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun qat'iyat va izchillik bilan harakat qilib kelmayapti". (Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, T.: "O'zbekiston", 1996. 51-bet)

Shunday qilib, mafkuraviy immunitet jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlashning omili sifatida keyingi yillarda ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan o'rganilmoqda.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi sifatida bilim bo'lganligi uchun bu masalaga mamlakatimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Birinchi navbatda bilimlarning ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi, xalq va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligiga katta e'tibor berilmoqda.

Tayanch so'zlar: immunitet, xavfsizlik, tahdid, yot, markaz, tajovuz, barqarorlik, tizim, ekstremizm va hokazo.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mafkuraviy immunitet nima va u nima uchun kerak?

2. “Mafkuraviy bo’shliq” qanday holatda vujudga keladi?
3. Yagona mafkura tamoyillari to’g’risida Siz nimalarni bilasiz?
4. “Yot g’oyalar” deb qanday g’oyalarga aytildi?
5. Mafkuraviy immunitetni qanday shakllantirish mumkin?
6. Mafkuraviy tahdidlar qanday ko’rinshilarda namoyon bo’ladi?
7. Mafkuraviy xavfsizlikni qanday ta’minalash mumkin?

Referat uchun mavzular.

1. Mafkuraviy immunitet to’g’risida Islom Karimov.
2. Mafkuraviy immunitet, xavfsizlik va barqarorlikning o’zaro munosabati.
3. Mafkuraviy immunitet tushunchasi, mohiyati, vositalari va uslublari.
4. Mafkuraviy tahidlarning shakllari. (Islom Karimov asarlari asosida).
8. Milliy g’oya, milliy mafkura-ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy barqarorlikning muhim omili.
9. Ko’pmillatli, ko’pkonfessiyali jamiyatlar barqarorligini ta’minalashda milliy g’oya va mafkuraning ahamiyati.

II BO'LIM. O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI VA MILLIY G'OYANING ZARURLIGI.

5-Mavzu. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi va ahamiyati.

Reja.

1. Mustaqillikni mustaxkamlashda milliy g'oyaning hayot iy zarurligi mohiyati va maqsadi.
2. Milliy g'oya – O'zbekiston xalqining o'zligini anglashi va milliy – ma'naviy tiklanish ifodasi ekanligi.
3. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy g'oyalari.

Jahon tajribasidan ma'lumki, har qanday yangi jamiyat muayyan g'oyalarning mavjudligiga ehtiyoj sezadi. Milliy g'oya va milliy mafkura mavjud. G'oyalar xususiyatlaridan kelib jamiyat taraqiyotiga turlicha ta'sir etadi.

Mavzu rejasidagi birinchi savol mazmunini ochib berishdan oldin o'qituvchi talabalar diqqatini milliy g'oyaning mazmun va mohiyati to'g'risida qo'shimcha ma'lumotga qaratishi o'rnlidir. Chunki, milliy g'oyaning qisqacha tarifi bilan talabalar yana bir marotaba tanishib olishlari lozim bo'ladi.

Milliy g'oya – millatning o'tishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

Demak, milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etishi kerak bo'lgan, vazifalari mo'ljallarni ham aks ettiradi.

Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni katta. Shu bois uning zarurligining tabiiy, ijtioiy – ma'naviy ehtiyoj ekanligining sabablariga Prezidentimizning qator asarlarida aniq, lo'nda javoblar o'z ifodasini topgan.

Islom Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni –xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin" (T.1998.) nomli kitobining 10-15-betlaridagi milliy g'oyaning jamiyatimizni, mustaqillikni mustahkamlash uchun g'oyat zarur ekanligi assoslab berilgan. "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq – ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman"¹ deydi Islom Karimov.

Yurtboshimiz o'z risolasida milliy g'oya va milliy mafkura qanday vazifalarni bajarishga qodir bo'lishligi haqida o'z fikrlarini bildirgan. Oddiy qilib ifodalaydigan bo'lsak, milliy g'oyaning mazmuni va mohiyati qanday bo'lishligi assoslab berilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, milliy g'oya O'zbekistonda barcha fuqarolarni, ijtimoiy toifa va guruhlarning barchasini milliy bayroq atrofida birlashtiradigan xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – mafkura bo'lishi kerak.²

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. 11 – bet.

² O'sha asar 14 – bet.

“Milliy g’oya milliyiftixor kundalik mashaqqatli ishlariimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g’ayratimizga – g’ayrat qo’shib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag’ishlab, ruhimizni baland, belimizni baquvvat qilishiga ishonaman” deydi Islom Karimov (15–bet). Ma’lumki, mustaqillikni mustahkamlash xalqimizning turmush tarzi, tafakkuri, milliy ma’naviy xususiyatlari, tarixi, madaniy merosiga tayanish maqsadlari bilan uzviy bog’liqlikda amalga oshmoqda. Bu bog’liqlik xalqimiz, millatimiz ongida aks etadi.

Mustaqillik yillarida qo’lga kiritilgan yutuqlarni mustahkamlashda milliy g’oyani anglash, unga ishonch va e’tiqod quyish o’ziga xos ahamiyatga ega bo’lmoqda. Ayniqsa, adamlarda milliy g’urur tuyg’ulari tiklanmoqda. Bu ijobji jarayonlarning nazariy asoslari Islom Karimovning “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqod va buyuk kelajakka ishonchdir” (20 – 27-bet) nomli risolasida berilgan. Birinchi savolga oid masalalarni chuqurroq o’rganishda Yurtboshimizning “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” (33 – 49, 60 – 67 betlar) dan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi savol muhokamasi yakunida o’qituvchi talabalarga Yurtboshimizning quyidagi fikrini o’qib berishi mumkin “Insoniyatning ko’p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o’zining milliy davlatini qurshiga ozmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirishi, shu yo’lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg’otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o’tishda o’ziga qo’shimcha kuch – quvvat va madad topishda umumiyy yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo’lgan milliy g’oyani tayanch va suyanch deb biladi”¹

Shuningdek, Islom Karimovning “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” T., 1996. (37-38, 51 – 58, 265 – 266-betlar) O’zbekiston: milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura jild-1. – T., 1996. (3-39-betlar) “Bugungi kunda ham xalqni yakdil qilaoladigan ishlar va g’oyalar oz emas. ularning ichida eng ulug’i, eng oljanobi – O’zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta’minalash” deb ta’kidlaydi Yurtboshimiz (15-bet) “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda” T., 1999, (8-15-betlar).

Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g’oyaga zaruriyatning oshib borishi sabablaridan yana biri g’oyaning xalq, millat ongida aks etishi bilan bog’liqgidir. Milliy g’oyaning mazmun va mohiyatini anglamay turib, unga e’tiqod qo’ymay turib har bir fuqaroning jamiyatda faollilik ko’rsatishi amri mahol. Shu bois, Yurtboshimizning qator asarlarida milliy g’oyani yaratish va uni odamlar ongiga singdirish masalasiga alohida e’tibor berilgan. “Oldimizda turgan eng muhim masala, bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizda tadbiq etishdir. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat,adolat, ma’rifat tuyg’ularini ongimizga singdirishi lozim” – deydi Islom Karimov.

Shu bilan birga bu mafkura xalqimizda, o’zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlargacha asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mushtaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o’laroq munosib o’rin egallashiga

¹ Qarang. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. 71-bet.

doimiy intilish hissasini tarbiyalamog'i kerak” (Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T: “O'zbekiston”, 1996. 203-bet)

“Bizning ulug' maqsadimiz, eng ulug' g'oyamiz, eng ulug' shiorimiz shuki, O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab, istiqlolni istiqlolni mustahkamlab – olg'a yurish. Mafkuramiz, tutgan yo'limiz, bor g'ayratimiz ana shu ulug'vor niyatga yo'naltirilishi kerak. Xalqimizni, barcha siyosiy kuchlarni, jamoat tashkilotlarini yakdillik, bir jon, bir tan qiladigan g'oya ham aslida shu”¹

Mazkur mavzu rejasidagi ikkinchi savolga oid materiallarni talabalarga uzatishda Islom Karimovning “O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”, 1996 y 1-jild, 3-20, 187-199-betlar; “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” 2-jild, 1996, 37-69, 207-209, 265-268, 283-284, 314-319-betlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Bugungi kunda ham xalqni yakdil qila oladigan ishlar va g'oyalar oz emas. Ularning ichida eng ulug'i, eng olijanobi – O'zbekiston Respublaksining mustaqilligini ta'minlash. Ana shu maqsad, ana shu g'oya atrofida birlashsak, aslo xor bo'lmaymiz”, - deb ta'kidlagan edi Islom Karimov²

Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan 1994 yil 31 avgustda bayram qatnashchilariga qarata so'zlagan nutqida shunday degan edi: “Biz uchun mustaqillik Allohnинг o'zi el-yurtimizga in'om etgan tabiiy boyliklarga egalik qilish, xalqimiz qurdati, salohiyati, aqlu zakovatiga tayanib, O'zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun munosib hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod Vatan qoldirishdir”³ Ozod va obod Vatan to'g'risidagi g'oya fuqarolarda kelajakka ishonch tuyg'usining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, milliy g'oya shu O'zbekiston deb ataluvchi mamlakatda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib bormoqda. Bu milliy g'oyamiz qisqa tarixiy davr ichida O'zbekiston xalqining asosiy maqsad va mudoalarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istiklarini amalga oshirishga mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladigan, ezgu maqsadlarga undaydigan jamiyatda o'zaro hamkorlikni, hamjamiyatlikni ta'minlaydigan g'oyalar g'oyalar tizimiga aylandi. Bu istiqlol tufayli qo'lga kiritgan katta yutuqlarimizdan biri sanaladi. “Istiqlolimizni qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, biz milliy g'oyamizning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqishga harakat qildik” - deydi Islom Karimov.⁴

Bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mustaqillikni mustahkamlashga milliy g'oyaning ta'sir etishish sohalari, negizlari va yo'naliшilariga;

Ikkinchidan, milliy g'oyaning ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarda, mustaqillikni mustahkamlashda namoyon bo'lishiga;

Uchinchidan, Respublikamizda ijtimoiy hayotning rivojlanishi, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosiga tayanishning konstitutsion tamoyillariga;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 217-bet.

² O'sha asar. 15-bet.

³ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 283-bet.

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 71-72-betlar.

To'rtinchidan, milliy g'oyaning milliy va umuminsoniy manfaatlarni ifodalashiga.

Sanab o'tilgan masalalarini bayon etishda o'qituvchi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan 12-moddasidan, Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". (137-152-betlar); "Jamiyatimiz mafkuurasi xaljni – xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin" (14 – 15 betlar); "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" (5–1 betlar); "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (71 – 76-betlar); "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8- jild. T.:2000, (462-467 betlar) dan keng foydalanish mumkin.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy g'oyalari mustaqillikni mustahkamlashda o'ziga xos ahamiyatni kasb etadi.

Tayanch so'zlar: mustaqillik, mustahkamlash, tayanish, xavfsizlik, tafakkur, turmush, milliy g'urur, or-nomus, hamjihatlik, egalik qilish, himoya, asrab-avaylash, kuch-quvvat, siyosiy institut, fikrlar xilma-xilligi, uzviy bog'liqlik.

Takrorlash uchun savollar

1. O'tish davrida nima uchun milliy g'oyaga ehtiyoj ortib boradi?
2. Milliy g'oyani qanday anglash mumkin?
3. Milliy g'oya mustaqillikni mustahkamlashga qaysi vositalar orqali ta'sir etadi?
5. Mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkinmi?
6. Milliy g'oya ma'naviy hayotga qanday ta'sir etishi mumkin?

Referat uchun mavzular

1. Milliy g'oyaning zarurligi tabiiy, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj ekanligi .
2. Islom Karimov milliy g'oya va milliy mafkurani yaratishning zarurligi haqida
3. Odamiylikda or-nomus, milliy g'oyaning roli.
4. Milliy g'oya va ma'naviy hayot (Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari bo'yicha)
5. Milliy g'oya va mustaqillikni mustahkamlash.

6-Mavzu: Milliy g’oya va milliy-ma’naviy qadriyatlar.

Reja

1. Milliy g’oyaning milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog’liqligi.
2. Milliy g’oyada umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e’tirof etilishi.
3. Milliy g’oyaning milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslanishining ahamiyati.

Milliy g’oya o’z mazmun va mohiyatiga ko’ra milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayanadi. Milliy g’oya milliy taraqqiyot omili sifatida namoyon bo’ladi va milliy-ma’naviy qadriyatlarda aks etadi. Bunday uzviy bog’liqlik milliy g’oyaning ta’sirini kuchaytiradi. Shubhasiz, milliy g’oyaning shakllanishida milliy-ma’naviy qadriyatlar, til, urf-odat, an’ana, din, yozuv, san’at, musiqa, me’morchilik, xalq falsafasi, dunyoqarashi, badiiy va og’zaki ijodining o’rni juda katta.

“...endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa – deb ta’kidlaydi Yurtboshimiz – milliy g’oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik kabi tamoyillarning ma’no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya ishlarning markaziga qo’yish, ularni yangi bosqichga ko’tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat”¹

Mustaqillikka erishilgandan keyin O’zbekistonda milliy-ma’naviy qadriyatlarga ta’siri oshib bormoqda. Ayniqsa, milliy-ma’naviy qadriyatlarga odamlarning hurmati juda baland desak aslo xato bo’lmaydi. Milliy g’oya va milliy-ma’naviy qadriyatlarning uzviy bog’liqligini yanada kengroq o’rganishda Islom Karimovning “O’zbekiston: XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarining 137-150-betlaridan foydalanish o’rinlidir.

Ushbu asarda ma’naviy qadriyatlar va milliy o’zlikni anglashning tiklanishining mohiyati to’liq ochib berilgan desak xato bo’lmaydi.

Birinchidan, bu asarda ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o’zlikning anglashining usishidan, xalqning sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblash kerakligi asoslangan.

Ikkinchidan, asarda ma’naviy qadriyatlarni hamda xalqimiz uchun muqaddas bo’lgan diniy qadriyatlar va an’anlarni qaytarish va tiklash, o’zligimizni angash ancha murakkab sharoitlarda – eski imperiya tuzumi barbod bo’lgan va yangi ijtimoiy munosabatlар qaror topayotgan bir sharoitda yuz bergenligi haqida kerakli darajadagi tahlillar o’z ifodasini topgan.

Uchinchidan, xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma’naviy uyg’onishi an’anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobi ma’naviy qadriyatlarning bitmas-tugamas manbai ekanligi urg’ulangan. «Ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi, - deydi Islom Karimov, - ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadiriyatlariga moslashishini ham anglatadi»²

Bu asarda ma’naiy qadriyatlar va milliy o’zlikni anglashning tiklanishi to’g’risida Islom Karimov tomonidan quyidagi fikrlar ilgari surilgan.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 75-bet.

² Qarang. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoti kafolatlari. 147-bet.

1. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishiga muvaffaq bo'lganligi;
2. Xalqimizning siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylanganligi;
3. Tarix millatning haqiqiy tarbiyasiga aylanib borayotganligi;
4. Ijtimoiy hayotni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi sababli ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochilganligi, demokratik qadriyatlarga e'tiborning oshib borayotganligi;

«Biron-bir jamiyat ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»¹ - deydi Yurtboshimiz.

O'rganilayotgan mavzudagi 2-savolni «Milliy g'oyada umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi» masalasining nazariy asoslarini bayon etishda ham Islom Karimovning qator asarlaridan foydalanish amaliy ahamiyatni kasb etadi.

2-savoldagi – «Milliy g'oyada umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi» masalasini bayon etishning boshlanishida talabalarga umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari to'g'risida qisqacha ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyillari bu barcha xalqlar uchun ijobjiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umummanfaatiga mos keluvchi moddiy va madaniy hodisalar, mezonlar, qadrli jihatlarning ustuvor bo'lishiga tayangan g'oyalar asosidagi faoliyat majmui. Ma'lumki, har bir odam jinsi, irqi, millati, yoshi, kasbi, e'tiqodidan qat'iy nazar avvalo u bashar farzandi, insondir. Ana shu umumiyy mohiyat barcha odamlar, millatlar uchun birday ahamiyatli va qadrli bo'lgan predmet, hodisa, jarayon, munosabatlarini farqlashga imkon beradi.

Birinchidan, umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tarixining yaxlitligini ifodalaydi, u davrlar o'tishi va ijtimoiy hayotning o'zgarishi bilan bir qatorda yanada takomillashib, rivojlanib, tobora ko'proq xalqlarni, millatlarni, insonlarni yaqinlashtiruvchi, birlashturuvchi va kamol toptiruvchi kuchga aylanib boradi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.137-bet.

UMUMINSONIY QADRIYATLARNING MUHIM JIHATLARI.

Insonparvarlik va ijtimoiy adolat Barqarorlik va farovonlik Ezgulik va taraqqiyot Erkinlik va ozodlik

Ikkinchidan, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uzviy bog'liq va ta'sirlashuvda o'zaro boyib boradi. Umuminsoniy ahamiyat kasb etgan milliy qadriyatlar barcha xalqlar uchun muhim qadriyatga aylanadi. Shu bois umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan muazmunan keng bo'lib, kelib chiqishi bo'yicha odamzodga tegishlidir.

Uchinchidan, umuminsoniylik milliy va shaxsiy qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi. Umuminsoniylikning ustuvorligi, har bir insonning baxtli-saodatli bo'lishi, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha ezgu amallar, o'zgarish va islohotlar inson manfaatlariga xizmat qilishi lozim degan talabga asoslanadi.

To'rtinchidan, har bir millatning mavqeい uning insoniyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi bilan o'lchanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qarama-qarshi qo'yish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, umuminsoniy ahamiyatni kasb etgan qadriyatlarning qayerda va qachon shakllanganligi qanday millat vakillari yaratganidan qat'iy nazar ehtirom bilan tan olish hamda qabul etish faqat taraqqiyotga xizmat qiladi. Shu bois, mustaqil O'zbekistonimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga xalqimizning jahon hamjamiyati bilan birga rivojlanish yo'lidan borishga alohida e'tibor berayotganilgi bejiz emas.

Rejadagi 2-savolga oid materiallarni bayon etishda o'qituvchi Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» risolasining 65-78-betlaridan foydalanilishi mumkin. «Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir» deydi Yurtboshimiz¹ Bu risolada xalqimiz adolat, tenglik, axl qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelayotganiligi, jamiyatni yangilashning maqsadi milliy va umuminsoniy an'analarni tiklashdan iborat ekanligi, shuningdek insonparvarlik – bu o'zbek xalqining milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlari ekanligi atroficha tahlil etilgan. Prezident Islom Karimov 1995 yil 23 fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida qilgan ma'rzasida yuksak ma'naviyat – kelajak poydevori ekanligini yangi metodolgiya asosida tahlil qildi. «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi» deydi

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. 65-bet.

Yurtboshimiz¹ Shuningdek, ma’ruzada iqtisodiy o’nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma’naviy o’nglash, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg’un bo’lganligini ta’kidladilar.²

Yurtboshimiz 1997 yilda ma’naviy tiklanishning ijobi, bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirishga qaratilgan, bir-birini to’ldirilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligi to’g’risida to’xtalib ushbu dasturlar, birinchi navbatda, qayta tiklanayotgan merosga farqlanib yondashishga, eng muhim, umuminsoniy qadriyatlarni boyitadigan hamda jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilanish talablariga javob beradigan, axloq jihatidan ahamiyatli an’analarni, urf-odatlarni tanlab olish zaruriyatiga asoslanganligini qayt etgan edilar.³

«O’zbek xalqining Ruhining tiklanishi, millat ma’naviy-ahloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog’liq bo’lgan hodisadir»⁴ - deydi Islom Karimov.

3-savol «Milliy g’oyaning milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslanishining ahamiyati» to’g’risida gapirliganda birinchi navbatda qisqacha bo’lsada milliy g’oyaning jamiyatga ko’rsatayotgan ta’siri ozmi-ko’pmi uning milliy-ma’naviy qadriyatlargaga asoslanishiga bog’liq ekanligi haqida to’xtalib o’tish kerak bo’ladi. U yoki bu g’oyaning milliy g’oya sifatida maydonga chiqishi va ta’sir etishi uchun milliy qadriyatlargaga, an’analarga asoslanishi, millatning o’tmishi, bugungi va kelajagiga daxldor bo’lgan masalalar bilan bog’liqlikda bo’lishi kerak. Demak, milliy g’oya millatning o’tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog’liq bo’lgandagina millatning uzoq yoki tarixan qisqa davrda erishishi lozim bo’lgan maqsad-murodlarini va mo’ljallarini to’g’ri ifodalay oladi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, kechagi va ertangi kun o’rtasida o’ziga xos ko’prik bo’lishga qodir g’oya taraqqiyotimizga samarali ta’sir etadi.⁵

Mazkur savolning javobini chuqurroq bayon etishi uchun, o’qituvchi Islom Karimovning quyidagi asarlaridan foydalanishimiz mumkin. «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobining 137-151-betlari; «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda», 14-26, 47-48-betlar; «Egali yurt erkini bermas». T.: 9 – T.: «O’zbekiston», 2001, 70-98-betlar; «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» 16-42-betlar; «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» 17-31-betlar.

Milliy g’oyaning milliy-ma’naviy qadriyatlargaga asoslanishi zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida yaqqol sezilmoqda. Milliy g’oya milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish va uni ezozlashning zarurligini odamlar ongiga singdirishda o’ziga xos ahamiyatni kasb etadi.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, milliy g’oyaning amaliyotda ifodalanishida milliy-ma’naviy qadriyatlar, til, urf-odat, an’ana, din, yozuv, san’at, musiqa, me’morchilik, xalq falsafasi, dunyoqarashi, badiiy va og’zaki ijodning roli katta.

Bu yuqorida sanab o’tilgan qadriyatlar milliy g’oyaning ta’sirchanligini oshirishda muhim o’rin tutadi.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdah kabi muqaddasdir. 34-bet.

² O’sha joyda 35-bet.

³Qarang. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: “O’zbekiston”, 1998, 525-526-betlar.

⁴ O’sha joyda 529-bet.

⁵ Qarang. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. 11-bet.

Tayanch so'zlar: qadriyat, til, urf-odat, yozuv, din, me'morchilik, umuminsoniy qadriyatlar, jamoa, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, halollik, andisha, sabr-bardosh.

Takrorlash uchun savollar

1. Milliy g'oyaning milliy-ma'anviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligining sabablari nimalardan iborat?
2. Milliy g'oyaning shakllanishida milliy qadriyatlar qanday o'rinn tutadi?
3. Ma'naviy qadriyat haqida nimalarni bilasiz?
4. Millatning ko'zgusini nima tashkil etadi?
5. Qanday qadriyatlar umuminsoniy qadriyat hisoblanadi?

Referat mavzulari

1. Milliy g'oyaning ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqligi.
2. Milliy g'oya – milliy taraqqiyot omili.
3. Milliy g'oyaning shakllanishida qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi.
4. Milliy g'oyada umuminsoniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning e'tirof etilishi.
5. An'anaviy madaniyat va mustaqillik.
6. Milliy g'oyaning milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslanishining ahamiyati.

III Bo'lim. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI – O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS VA MOS RIVOJLANISH KONSEPSIYASI

7-mavzu: Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish

Reja:

1. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston istiqbolini ifoda etuvchi milliy taraqqiyot konsepsiysi.
2. Ozod va obod Vatanni anglash va qadrlash tuyg'usi.
3. Milliy g'oya va demokratik rivojlanish.

Milliy g'oyaning bosh maqsadi. Ushbu qo'llanmaning yuqoridagi mavzularida milliy istiqlolning asosiy g'oyalari va ularning umumbashar tarixi, qadriyatlar, buguni bilan bog'liqligi haqida ba'zi fikrlar bayon etildi. Uning yakuniy bo'limida anna shu g'oyalarning mazmuni, maqsadlari va vazifalari haqida kengroq to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

«Eng muhimi, mustaqillikning dastlabki yillari o'z istiqlol va taraqqiyot yo'limizni sobitqadamlik bilan izlash, O'zbekistonning erkin, qudratli va gullab-yashnayotgan mamlakatga aylantirish yo'lidagi intilish davri bo'ldi. Bu davrda biz o'zligimizni anglash yo'lida ulkan qadam qo'ydi, o'zimizning tarixiy yo'limizni tanlab oldik»¹ - deydi Yurtboshimiz. Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo'naliishlari» nomli risolasida quyidagi konseptual xulosalar berilgan:

1. Hayotimizning, jamiyatimizning asosiy tamoyillarini va davlatimizning siyosiyijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy tuzilmalarini hal qiluvchi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, erkin demokratik kelajagimizni aniq belgilab bergen Asosiy Qonun-Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining ahamiyati haqida;
2. Dunyoda umumiyoq yo'l-yo'riqlar, o'xshash andozalar yo'qligi, shuningdek, bir-biriga o'xshash davlatlarning yo'qligi, O'zbekiston xalqi tanlangan taraqqiyot yo'li respublikamizning o'ziga xos turmush tarzining shart-sharoitlari va xususiyatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanganligi to'g'risida;
3. Ayni paytda O'zbekiston tanlangan yo'l jahon amaliyoti to'plagan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga o'tgan mamlakatlar orttirgan ijobjiy tajribalarni hisobga olganligi haqida.²

Shunday qilib, O'zbekiston tanlab olgan yo'l-ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir. Milliy istiqlol g'oyasining O'zbekiston istiqbolini ifoda etuvchi milliy taraqqiyot konsepsiysi ekanligi to'g'risida konseptual yondashuv Prezidentimizning qator asarlarida qayd etilgan. Ma'lumki, yurtimiz mustaqillikga erishgach o'ziga xos taraqqiyot yo'li – o'zbek modelini belgilab oldi. Ana shu taraqqiyotni amalga oshirishda yetakchi vosita bo'lgan milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi, ta'kidlaganimizdek, Vatanimizni ozod va obod etib, unda xalqimiz uchun farovon hayot barpo etishdan iboratdir.

¹ Karimov I.A O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo'naliishlari T.: "O'zbekiston" 1993, 3-bet.

² Qarang. O'sha asar. 4-bet

Insonning ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy mohiyati faqat ozodlik va erkinlik sharoitidagi to’la to’kis namoyon bo’lib, bu g’oya O’zbekiston xalqining ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishi, millatimizning azaliy orzu umidlarini, intilishlarini, buniyodkorlik faoliyatining ma’no – mazmunini ifodalaydi.

Tarixga nazar tashlasak, siyosiy jihatdan ozod va erkin bo’lgan davrlarda yurtimizning ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy hayoti gullab yashnaganini boshidan kechirganligini ko’ramiz. Mustaqillik milliy qadriyatlar madaniyat va an’nalarni, ma’naviyatni tiklab, odamlarimiz qalbida milliy g’urur va iftixorni, ozod va obod Vatan tuyg’ularini kamol toptirishga zamin yaratadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g’oyasida mustaqillik ozodlik, eriknlik tushunchalarining ustivor va yetakchi o’rinda turishi, Vatan ozodligi barcha orzu – intilishlarimiz, istiqlolni mustahkamlashga doir amaliy faoliyat ko’lami va yo’nalishlari uchu nasos ekanligidan dalolat beradi. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, biz uchun mustaqillik – o’z erkinligimizni anglashgagina emas, balki avvalo, o’z hayotimiz o’z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko’zlagan holda tashkil etish, o’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan yaratish huquqidir»

Ushbu 7-mavzuning dolzarb masalalaridan biri – bu ozod va obod Vatanni anglash va qadrlash tuyg’usidir. Darsda bu tuyg’uning ijtimoiy-falsafiy mazmuni to’g’risida gapirganda ozod, obod Vatan, erkin va farovon hayot g’oyasining mohiyatini qisqacha tavsiflab o’tish maqsadga muvofiq.

Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot g’oyasi: **birinchidan**, otabobolarimizdan meros bo’lib qolgan, kindik qonimiz to’kilgan muqaddas zaminning daxlsizligini, xavfsizligini ta’imnlash; **ikkinchidan**, ma’naviy-ruhiy jihatdan milliy o’zligimizni anglash va uning ifodasi bo’lgan milliy ma’naviy va diniy qadriyatlarni saqlash, boyitish va avlodlarga meros qoldirish; **uchinchidan**, erksevar asriy orzu – umidlari bo’lgan mustaqillikni mustahkamlashga barchani safarbar qilish; **to’rtinchidan**, har bir kishining farovonligi, davlat va millat farovonligi asosi ekanligini anglagan holda tashabbuskorlik, tadbirkorlik bilan fidokorona mehnat qilishga asoslangan; **beshinchidan**, bu g’oya kelajakka qaratilgan bo’lib, xalqni uyushtirish, safarbar qilish vazifasini bajaradi; **oltinchidan**, bu g’oyada mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillarining pirovard maqsadlari ifodalangan bo’lib, u kishilarning kelajakka chorlovchi ulug’vor va jozibali shior tarzida namoyon bo’ladi.

Bu g’oyani xalqmiz ongiga, qalbiga chuqur singdirish mustaqillikni mustahkamlash, buyuk kelajakni qurish va O’zbekistonning ilg’or davlatlar qatoriga qo’shilish jarayonining muhim omilidir.

Ozodlik g’oyasi – mazlumlarni o’z erki uchun kurashga chorlaydigan, qullik va qaramlikning har qanday ko’rinishini inkor etadigan umuminsoniy g’oya.

Bu g’oya insoniyat tarixinining azaliy yo’ldoshi, o’tmishidan hozirga qadar o’z ahamiyatini saqlab kelayotgan ezgu qadriyatlarni ifodalaydi. Uning mazmun – mohiyatini bir necha yo’nalishda talqin va tahlil qilish mumkin. U ijtimoiy ma’noda – jamiyat hayotining qandayligi va qay tarzda tashkil etilganligini, siyosiy ma’noda – mustaqil va emin-erkin yashashni, iqtisodiy ma’noda – mulk va moddiy boyliklarga barchaning teng ega bo’lish imkoniyatini, ma’naviy ma’noda – inson va jamiyatning turli tazyiqlardan xolisligi, fikr, e’tiqod va so’z erkinligini anglatadi.

Ozodlik g'oyasi insoniyat tarixida o'chmas nom qoldirgan ko'pgina allomalar, mutafakkirlar hayoti va ijodining mazmunini tashkil etgan. Alisher Navoiyning quyidagi ruboyisi bu g'oyaning asl mohiyatini aks ettiradi:

G'urbatda g'arib shodumon bo'lmas emish,
El angu shafiqu mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

Ozodlik g'oyasini umuminsoniy, milliy va shaxsiy nuqtai nazarlardan talqin qilish mumkin. Umuminsoniy jihatdan, bu g'oya – butun Yer yuzida taraqqiyot va erkinlik uchun kurashayotgan kishilarning muzaffar bayrog'i, demokratik jamiyat va davlatlar hayotining ustivor tamoyillaridan birini ifodalaydi. Milliy jihatdan, u har bir millat va xalqning o'z mustaqil taraqqiyot yo'li, o'z taqdirini o'zi belgilay olishi, milliy davlatchiligiga ega bo'lishi imkonni borligini anglatadi. Shaxsiy darajadagi ozodlik – inson haq-huquqlarining ro'yobga chiqishi, uning ijtimoiy – ma'naviy jihatdan erkinligini bildiradi.

Bu g'oya milliy istiqlol mafkurasining asosiy tushunchalardan biri – «Ozod va obod Vatan» iborasida o'z ifodasini topgan. Vatanning ozod va obodligi shubhasiz yurtning tinchligi zamiridagi taraqqiyot, ya'ni vatan ravnaqiga bog'liq.

Vatan – bu har bir xalqning o'tmishi, bugungi va kelajagini mujassamlashtiruvchi muqaddas makon bo'lib, ostona, beshik, uy, qishloq, mahalla, shahar, tuman, viloyat, mamlakat. Ana shu yuqorida keltirilgan materialarning nazariy asoslarini bayon etishda o'qituvchi Islom Karimovning quyidagi asarlaridan foydalanishi mumkin: «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» 128-133, 210-222, 249-264, 283-284, 292-313-betlarida Vatan, mustaqillik, ozodlik, erkinlik, obodonchilik, tinchlik, do'stlik kabi g'oyalari o'z ifodasini muayyan darajada topgan. Masalan, 283-betda, mustaqillikning uch yilligi haqida qilgan ma'ruzasida shunday deyilgan: «Biz uchun istiqlol – davlatchiligidan mustahkam, buyuk kelajagimizning poydevorini qurish, milliy ongimiz va faxrimizni yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o'rnimizni egallashdir. Shu maqsadlarga erishish uchun yurtimizning barcha aholisi O'zbekistonni yagona va aziz yurtimiz deb bilishi va taqdirini Vatan taqdiri bilan uzviy bog'lab kurashmog'i mehnat qilmog'i darkor».

«Vatan sajdogoh kabi muqaddasdir» nomli kitobi (34-40, 74-85, 187-198, 274-284-betlar) Vatan uchun kurashmoq, mehnat qilmoq, yashamoq, kelajak avlod oldida ma'suliyatni sezmoq zarurligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, 1993 yilda Prezidentimiz bir guruh yozuvchilar bilan o'tkazgan suhbatida shunday degan edi: «Odamlarga shuni aytish kerakki, bizga berilgan imkoniyat yuz yilda bir marta kelishi mumkin asosiy masala shundan iboratki, mustaqillikni saqlab qolishimiz, uni kelajak avlodlarga omon yetkazishimiz, qadrini to'g'ri tushunishimiz lozim» (190-bet).

«Vatan» tushunchasi arabchada ona-yurt degan ma'noni anglatib kishilarning o'zi yashab turgan, ajdodlari va avlodlari tug'ilib o'sgan, millati shakllangan hudud, ijtimoiy muhit, mamlakat. Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytilmaydi. Lekin, kishi ulg'aygan sayin uning Vatan haqidagi tasavvurlari ham kengayib boradi. Vatanga bog'liqlik, uni qadrlash tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'lib, muhit va davr ta'sirida shakllangan ijtimoiy – ruhiy tuyg'udir. Aynan shu faravonligi yo'lida faol mehnat qilishga undaydi. Ozodlik g'oyasi xalqimizning turmushida o'z ifodasini azaldan topib kelgan.

Yurtboshimiz, 1993 yil 9 sentabrda «Turkiston» saroyi ochilishi marosimida so'zlagan nutqida shunday degan: «Bizning xalqimiz azaldan obodonlik oshig'i, azaldan bog'parvar, azaldan o'z turar joyini chiroli qilib yashashga o'rgangan xalq»¹. Ozod va obod Vatan g'oyasi milliy g'oyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatidan fuqarolarning Vatan oldidagi burchini anglatadi desak xato bo'lmaydi. Biz bugungi kunda Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Shu davlat va jamiyat menga nima berdi? deb emas, balki: Men o'zim Vatanga, elu-yurtimga nima berdim?» deb o'ylashimiz va shu aqida bilan yashashimiz kerak.²

Shunday qilib, Vatan tushunchasi keng falsafiy ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, muayyan xududlarni o'zida ifodalaydi, ijtimoiy muhit va inson uning hayoti kabi ko'plab ma'naviy tushunchalarini o'z ichiga oladi, avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkani anglatadi. Shu bois yurtimizda yashayotgan 136 taga yaqin millat va elatlar vakillari O'zbekistonni o'z Vatanim deb hisoblamoqdalar. Demak, Vatan bu bir joy, zamin, o'lkada yashayotgan kishilarni, millati yoki dinidan qat'iy nazar birlashtiruvchi ijtimoiy tushuncha.

Bu tushuncha mustaqillik sharoitida alohida ahamiyatni kasb etmoqda. Endilikda Vatanni anglash, uni qadrlash, zarur bo'lsa qo'lga qurol olib tashqi tajavuskor kuchlardan himoya qilish har bir O'zbekiston fuqarosining burchiga aylandi.

3. Milliy g'oya va demokratik rivojlanish.

Demokratik jamiyatning mavjudligi milliy g'oyaning amalda ifodalanishi uchun muhimdir. Milliy g'oyada milliy taraqqiyot va demokratik tamoyillar uyg'unligi muhim ahamiyatni kasb etadi. Milliy g'oya tamoyillarining jamiyatda ifodalanishi o'z navbatida demokratik jarayonlarning holatiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Shu sababli, o'qituvchi Ushbu savol mazmuniga oid materiallarni bayon etishdan oldin talabalarga «demokratiya» tushunchasi demokratiyaning mohiyati, tamoyillari va mezonlari haqida qisqacha umumiy ma'lumotni bermog'i lozim.

Ma'lumki, demokratiya (yunoncha «demos» xalq va «kratos»-hokimiyyat) – xalq hokimiyyati deyilgan ma'noni anglatadi. Xalq hokimiyyati – fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e'lon qilishga asoslangan siyosiy tuzum shakli. Tarixiy taraqqiyot davomida demokratiya tushunchalari mazmunan boyib borgan. Bu jarayon bugungi kunda jahoning ko'p mamlakatlarida, jumladan O'zbekiston ham davom etayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Lekin, demokratiya eng rivojlangan davlatlarda ham yuqori takomil nuqtasiga, ideal darajasiga erishgani yo'q. Demokratiyaning jahoning barcha mamlakatlari uchun bir xildagi andozasi bo'lishi mumkin emas. To'g'ri, demokratiyaning jamiyatning jahonda e'tirof etilgan tamoyillari mavjud.

Har bir millat va jamiyat, ayni paytda har bir davr o'z demokratiyasiga egadir desak xato bo'lmaydi. Bu o'ziga xoslik xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, milliy mentaliteti, an'analari, amaldagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteri kabi qator omillar bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda, barcha millatlar va jamiyatlar, davrlar va davlattlar uchun mavjud tuzumning demokratik xarakterini belgilovchi umumiy

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 38-bet.

² O'sha asar 110-bet.

mezonlar mavjud. Ana shu yuqorida biz to'xtalib o'tgan ilmiy-nazariy masalalarning konseptual tahlili Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi asarlarida berilgan.¹

Milliy g'oya, demokratiya, davlat, jamiyat va fuqaro tushunchalari uzviy bog'liqlikda rivojlanadi va taraqqiyotga ta'sir etadi.

«Bugun biz qanday davlat qurayapmiz? Uning siyosiy va ijtimoiy negizi, uning qiyofasi qanday bo'lishi kerak? Yangi demokratiya jamiyat shakllanishida uning ta'siri qanday bo'ladi? - degan savollarga javob topish, bu xususda atroficha fikr yuritish furasati yetdi» - deydi Yurtboshimiz. (Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. (6-bet) «Davlat qurilishi borasida tanqidiy nuqtai nazarsiz qabul qilinadigan tayyor qolip va andozalar yo'q... Har bir davlat – betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilidir, uning o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir» (6-bet).

1995 yil 23 fevralda Islom Karimov Oliy Majlisning birinchi sessiyasida qilgan ma'rurasida demokratik jamiyatning xalqaro miqiyosda e'tirof etilgan quyidagi tamoyillari ta'kidlab o'tdilar.

1. Insonning o'z hoxish irodasini erkin bildirish hamda uni amalgalashirishi;
2. Ozchilikning ko'pchilikka bo'yusunishi;
3. Barcha fuqarolarning teng huquqligi;
4. Davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi;
5. Davlatning asosiy organlari saylanishi ularning saylovchilar oldida hisob berishi;
6. Tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar.

Shuningdek, yurtboshimiz bu tamoyillarni bizning zaminimizda qanday amal qilinishi, demokratik jarayonlar o'z ob'ektiv qonuniyatlarini asosida rivojlanishi, ularni o'rganib xulosa chiqarish lozimligini ko'rsatib o'tgan. Karimov I.A. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» (8-bet)

Darsda o'qituvchi Islom Karimovning Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va xususiyatlari borligi, ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topishi, bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush holatlarga olib kelishi mumkinligi haqidagi fikrlarini talabalarga tushuntirib berishi lozim.

Asarda jamiyatni demokratiyalashtirishning muhim sharti odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga mutanosib bo'lishi lozimligi ham ko'rsatilgan. «Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, demokratik jarayonlarni chetdan nus'ha olib ko'r-ko'rona ko'chirish aslo samara bermaydi. Aslicha bunday yo'l chalkash va xatarli va oqibatlarga olib kelishi mumkin» deydi Islom Karimov (9-bet)

Bulardan tashqari, ushbu asarda demokratiyaning shakllanishi, demokratik jarayonlarni boshqarish demokratiyaning mamlakatimizga xos jihatlariga, birinchi navbatda fuqarolar faolligini oshirishga e'tibor berish zarurligi alohida ko'rsatilgan. Bular quyidagilardan iborat:

¹ Qarang. Karimov I.A. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» T.3., T.: «O'zbekiston», 1996, 3-32, 74-79, 102-104, 131-142, 352-366-betlar; «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» T.: «Shatq» nashriyoti-matbaa kontserni Bosh tahririyati. 1998., 31-48, 53-55-betlar; «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T.2.,T.: «O'zbekiston», 1996, 348-352, 368-371-betlar; «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» T. «O'zbekiston», 15-23, 68-76-betlar.

1. Demkoratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni va hayotga tadbiq qilishni hamda ularni himoyalash zarurligini avvalambor jamiyatning o'zi anglamog'i darkorligi;
2. Demokratik jarayonlar xalqimiz milliy madaniyatining o'ziga xos jihatlarini, uning tabiatini o'zida mujassam etmog'i zarurligi.

G'arb namunasi ko'p holatlarda individualizm falsafasiga tayanishi, Sharqda esa demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrlarining ustivorligi zaminida shakllanishi(9-bet):

3. O'zbekistonda shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurish maqsad qilib belgilanganligi,adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmog'i, fuqaro faoligini oshirish, adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatning zamini,bosh yo'nalishi bo'lmos'i shart ekanligi (10-bet).

Ana shu yuqorida demokratiya to'g'risida Yurtboshimiz tomonidan aytilgan konseptual, ilmiy-nazariy xarakterdagи fikrlar o'rganilayotgan masalaning mazmun va mohiyatini to'liq ochib berishda o'ziga xos ahamiyatini kasb etadi.

Xulosa shundan iboratki, demokratiya mohiyatan insonning har tomonlama kamol topishi uchun berilgan katta imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlarida uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. Ayni paytda, demokratiya qabul qilingan qonunlar, amaldagi tartib-qoidalar yordamida shaxs hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm hamdir. Demokratik jamiyatda fuqarolar faolligi muayyan huquqiy normalar bilan chegaralanadi. Faollik degani chegarasiz harakat emas.

Demokratiya avvalo, - yuksak ma'rifat va madaniylashgan jamiyat shakli sifatida millatni demokratiyaga adolat va erkinlikka tayyorlaydi va safarbar etadi. Shuningdek, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish jarayonida milliylik va milliy o'zlik namoyon bo'ladi. Demokratiya mohiyatan milliy va umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Shu bois, Prezidentimizning «demokratiya bosh yo'limiz» deb ta'kidlashi bejiz emas.

«Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo'lishida aholining bilimdonligi muhim ahamiyatni kasb etmoqda. Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va aksincha kam, omi odamlar avtoritorizmni va totalitor tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishnonarli tarzda isbotlamoqda»¹ - deydi Islom Karimov. Shu sababli Islom Karimov ushbu risolada jamiyatni demokratlashtirishning samarasi odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'iliq ekanligini alohida ta'kidlab o'tganlar. Yuqorida aytib o'tganimizdek, demokratik o'zgarishlar moddiy va ma'naviy sohalardagi tinimsiz kundalik mehnat, kurash natijasida qo'lga kiritiladi. Darsda talabalarga Yurtboshimizning quyidagi fikri o'qib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi: «Insoniyat bosib o'tgan taraqqiyot yo'li yana shundan dalolat beradiki, demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Demokratiyaga tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib ter to'kib, hayotning achchiq-chuchugini obdon totib, qiyin aytish mumkinki, hatto fojeali tajribalarini ham boshdan o'tkazib, og'ir sinov va kurashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin»² Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, demokratiya

¹ Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari T.: «Shatq» nashriyoti-matbaa kontserni Bosh tahririyati. 1998, 28-29-betlar.

² O'sha asar 37-bet.

atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyligi, yashashga qobiligi muhimdir. Ushbu savolning nazariy-ilmiy qirralarini chuqurroq o'rganishda Islom Karimovning quyidagi asarlari muhim amaliy ahamiyatni kasb etadi:

Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998. 532-536, 540-545, 552-566-betlar; Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. T.: "O'zbekiston", 1996, 5-12, 15-18, 22-39-betlar; Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: "O'zbekiston", 2000, 12-23-betlar.

Ushbu sanab o'tilgan asarlarda demokratik rivojlanish sharoitida milliy g'oyaning umuminsoniy ahamiyatga ega ekanligi, demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan chuqr tahlil etilgan. Buni biz quyidagi satrlardan bilib olishimiz mumkin. "Haqiqatan ham demokratiya – faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an'analari, madaniyatli, psixologiyasining xususiyatlari hamdir. Demokratiya g'oyalarini bayon qilish mumkin. Siyosatda demokratiyani yuqoridan tushurishi mumkin, lekin bu bilan demokratiya sizu - bizning amaliy hayotimizga singmaydi. Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak"¹ - deydi Islom Karimov.

Shunday qilib, milliy g'oya mazmun va mohiyatiga ko'ra demokratik tamoyillarning kundalik turmushimizda ifodalananishiga samarali ta'sir etadi. Demokratiya insoniyatning bugungi kungacha o'ylab topgan, ijtimoiy muammolarni hal etishning eng oqilona yo'li sifatida taraqqiyotimizda muhim rol o'ynamoqda.

Tayanch so'zlar: Vatan, ozod, obod, erkin, taraqqiyot, demokratiya, fuqarolik, farovon hayot, Sharq, G'arb, demokratiya tamoyillari, tafakkur, saviya, hamjihatlik, jamoatchilik.

Nazorat savollari

1. Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi nimalardan iborat?
2. Erkinlik inson faoliyati uchun qanday ahamiyatni kasb etadi?
3. Yoshlarda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish tuyg'usini qanday qaror topishi mumkin?
4. Demokratik jamiyat qanday belgilarga ega?
5. Milliy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Demokratiya, demokratik jamiyat qurish, demokratlashtirish to'g'risidagi fikrlar Islom Karimovning qaysi asarlarida nisbatan kengroq berilgan?
7. Demokratik jamiyatning yagona modeli mavjudmi?

Referatlar uchun mavzular

1. Milliy istiqlol g'oyasining O'zbekiston istiqbolini ifoda etuvchi milliy taraqqiyot konsepsiysi ekanligi.
2. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish g'oyasini Islom Karimov asarlarida asoslab berilishining nazariy-amaliy ahamiyati.
3. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish to'g'risida.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr sari intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 564-bet.

4. “Biz hech kimdan kam emasmiz va hech kimdan kam bo’lmaymiz” (I.Karimov) g’oyasining mohiyati.
5. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligi to’g’risida Islom Karimov.
7. Islom Karimovning “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” g’oyasining mohiyati.

8-Mavzu: Millatlararo totuvlik, milliy g’oya va diniy bag’rikenglik. Reja.

1. Millatlararo totuvlik g’oyasi: mohiyati va talqini.
2. Mustaqil O’zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikning amalda namoyon bo’lishi.
3. Til va milliy g’oya.

1. Millatlararo totuvlik g’oyasi: mohiyati va talqini.

Darsda ushbu birinchi savol to’g’risida materiallarni bayon etishda millatlararo totuvlik tushunchasi haqida qisqacha to’xtalib, talabalarning asosiy e’tiborini millatlararo totuvlik g’oyasining mazmuniga qaratish kerak.

Millatlararo totuvlik – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri bo’lib, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushunchani anglatadi. Ma’lumki, Yer yuzasidagi 1600 dan ortiq millatdan, atiga 200 ga yaqini o’z davlatchiligidagi ega. Demak, dunyoda millatlararo totuvlikni ta’minlash muammosi hozircha mavjud emas bu masalaga har doim e’tibor berishimiz lozim bo’ladi.

Bu masalani bayon etish jarayonida Prezident Islom Karimovning «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» nomli asarining 69-84-betlaridagi materiallardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, hozirgi davlatlar asosan ikki turga – polietnik (ko’p elatli) va monoetnik (bir elatli) davlatlarga bo’linadi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, dunyoning haqiqiy boyligi, qadriyatlarni o’zaro ayriboshlash, bir-birini boyitish imkoniyati ana shu xilma-xillikkadir. Ammo hozirgi zamonning hal qilinishi mushkul bo’lgan muammolaridan biri ham unga borib taqaladi. Dunyoda yashayotgan etnoslarning ko’philigi o’z milliy davlatchiligidagi ega emas¹.

Ushbu asarda **birinchidan**, bunday holning xalqaro hamjamiyat uchun bir ogohlantirish bo’lishi kerakligi, etnik o’zligini anglashning o’sishi hali uzoq vaqt davomida hozirgi dunyo siyosiy taraqiyotning dinamikasini belgilab turishi atroflicha asoslab berilgan.

Ikkinchidan, ko’p millatli va ko’p tilli mamlakatlarda o’z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o’rtasidagi o’zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo’lib qolayotganligi;

Uchinchidan, ichki siyosiy ahvolning barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ko’p millatli davlatda yashayotgan boshqa millatlar vakillarning siyosiy hayrihohligiga bevosita bog’liq bo’lishi;

To’rtinchidan, dunyoning ko’pgina davlatlarida ko’p elatlik omili ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo’lida to’g’anoqqa aylanib qolmagani, aksincha taraqiyotning jadallashuviga yordam bergenligi, yashayotgan xalqlarning ma’naviy-

¹ Qarang. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 69-bet.

aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylanganligi, pirovardida bu mamlakatlarda elatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolik jamiyat qurishning ta'sirchan vositasiga aylanib qolganligi ta'kidlangan. (70-bet)

Shuningdek, ushbu asarning 70-74-betlarida ijtimoiy va sotsial o'zaro munosabatlar jarayonidagi etnik va millatlararo omillarning o'zi nima? O'zbekiston sharoitida ular xavfsizlikka qay darajada tahdid solmoqda? kabi savollarga aniq javob berilgan.

Millatlararo totuvlik g'oyasining mohiyati muayyan davlatda yashayotgan turli elat vakillarining hamjihat bo'lib faoliyat ko'rsatishiga chorlaydi. Millatlararo totuvlik jamiyat taraqqiyotining omili sifatida amaliyotda namoyon bo'ladi va aksincha millatlararo ziddiyat jamiyatda beqarorlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

«Mavjud ziddiyatlar xalqlar va davlatlarning xavfsizligiga tahdid soladigan fojiali oqibatlarga olib boruvchi millatlararo majorolarga aylanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi» - deydi Islom Karimov¹

«Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» nomli risolasida «Jamiyatimizning siyosiy sohadagi yana bir yutug'i shundaki, ijtimoiy uyg'unlashish kuchaydi, fuqarolar va millatlararo totuvlik, tinchlik saqlandi. O'zaro hurmat, bag'rikenglik, do'stlik hayotiy ehtiyoj ekanligini mamlakatimiz fuqarolari tobora ravshan his etmoqdalar» - deb ta'kidlangan (58-bet).

Yurtboshimiz, O'zbekistonda o'tish davrining dastlabki bosqichlaridagi demokraitk o'zgarishlar va siyosiy tafakkur rang-barangligiga baho berib, o'z taraqqiyot yo'limizni tanlaganligimiz to'g'risida gapirib shunday deydi: «Bizning modelimiz vatanimiz hududida tarixan shakllangan jamiyatning ko'p millatli tarkibini saqlab qolish va mustahkamlashga asoslanadi» (58-bet)

«O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» risolasining 65-69-betlarida esa xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligiga xos jihatlar chuqur tahlil qilingan.

«Fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonuniylik va huquqiy targ'ibotni qaror toptirish manna shunday siyosiy davlat va konstitutsiyaviy tuzumga erishish kalitidir»² - deydi Islom Karimov.

Diniy bag'rikenglik odatda dinlararo munosabatda namoyon bo'ladi. Diniy bag'rikenglik milliy g'oyaning muhim jihatni hisoblanadi. Diniy bag'rikenglik (talerantlik) xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning oljanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyatni ravnaqi yo'lida xizmat qilishni anglatadi.

Hozirgi kunda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Umumlashtirib ifodalaydigan bo'lsak, diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Mustaqil O'zbekistonda o'n beshta diniy konfessiyaning tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimizda ularga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va jamiyat

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 75-bet.

² Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 – T.: «O'zbekiston», 1996, 48-49-betlar.

hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Bu boradgi huqiqiy asoslar Konstitutsiyamizda, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

Din va diniy bag'rikenglik to'g'risida ilmiy-nazariy qarashlarning mohiyatini ochib berishda Prezidentimiz Islom Karimovning konseptual qarashlari muhim o'rinni tutadi. Masalan, «O'zbekiston buyuk kelajak sari» (1998) asarining 440-450-betlardan ta'kidlangan fikrlardan foydalanish o'rinnidir. «Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan» (441-bet)

Mazkur asarning 448 sahifasida hozirgi kunda respublikada 15 ta diniy konfessiya uyushmalari faoliyat yuritayotgani, ularning bir qismi noan'anaviy ekanligi, davlat ular bilan o'zaro munosabatda o'z dunyoviy xususiyatini hisobga olgan holda quyidagi tamoyillarga amal qilayotganligi ko'rsatib o'tilgan:

- dinlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining hususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;
- diniy buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish. (448-bet)

O'zbekiston davlatining dinga bo'lbo'lgan munosabatda ham bag'rikenglik ruhi sezilib turadi. «Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafborimiz» - deydi Islom Karimov (449-bet). «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» (1996) nomli asarning 40-42-betlarida diniy bag'rikenglik g'oyasining mazmun va mohiyatini ochib berishga yo'g'irilgan teran fikrlar o'z ifodasini topgan.

«...ko'p millatli mamlakatimizda islom dini bilan barovar pravasslaviye, iudaizm, baptizm, andventizm, katolitizm singari o'ndan ortiq boshqa konfessiyalar mutloq erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Qaysi din yoki mazhabga mansubligidan qat'iy nazar, bu konfessiyalarning vakillari biz bilan yelkama-yelka turib, O'zbekiston xalqlarining farovonligi va ravnaqi uchun astoyidil mehnat qilayotganlari bizni mammun etadi» (41-bet)

Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi va tinchlik, yaxshilik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr-shavqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish doimo yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratligini ta'kidlaydi. Demak, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag'rikenglik yotadi. Bu falsafiy o'zaro bog'liqlikni talabalarga misollar asosida tushuntirilsa foydadan xoli bo'lmaydi.

Diniy bag'rikenglik, islom dinining jamiyatimiz taraqqiyotida tutayotgan o'rni Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomi kitobida ham (35-40-betlar) chuqur tahlil etilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- dinning azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamlarning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etib kelgan va kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizim ekanligi;

- ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelganligi;

- bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib borayotganligi, uning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashidagi beqiyos o'rni bilan bog'liqligi.¹

Shuningdek, ushbu asarda har qanday ijtimoiy hodisa qadriyatlarning o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini borligini, bu haqiqatni unitish, milliy qadriyatlarni bir yoqlama, sun'iy ravishda ulug'lash va ideallashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish olib kelishi ehtimolidan xoli emasligi ta'kidlangan.

«Ayniqsa O'zbekiston kabi ko'pmillatli, ko'pkonfessiyali mamlakatda bunday harakatlar oxir-oqibatda millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy va diniy betoqatlik kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin.

Biz xalqimizning aql-idroki, mustahkam irodasi, bag'rikengligi va insonparvarligiga tayangan holda, bu borada amalga oshirgan bir qator ishlar bugungi kunda o'zining ijobiy samarasini bermoqda» deydi Islom Karimov²

3. Til va milliy g'oya.

Ushbu savolga javobni tayyorlash jarayonida til va milliy g'oya o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik tamoyillariga alohida e'tibor berish lozim. Milliy g'oya, millat ruhiyatining ifodasi bo'lgan ona tilining saqlanishi va rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Bu jarayon to'g'risida talabalar yetarlicha ma'lumotga ega bo'lislari kerak.

Har qanday millat o'z tili bilan tirikdir. Abdullo Avloniy aytganlaridek, «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdir».

3-savolning mohiyatni hozirgi davr talabi darajasida atroflicha bayon etmog'i uchun Prezidentimizning – «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarining 83-95-betlaridagi teran fikr va mulohazalardan keng foydalanishi mumkin. «Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir»³ deydi yurtboshimiz.

Bu asarda quyidagi amalga oshirilgan siyosiy – tashkiliy tadbirlar ta'kidlab o'tilgan:

- Mustaqillik arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qizg'in, ba'zida keskin va murosasiz bahs va tortishuvlar bo'lib o'tganligi;

- O'zbekiston sharoitiga mutloqa to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga zid va qarama-qarshi fikrlarni olg'a surgan, milliy tuyg'ularni ro'kach qilib, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanishga urinishlar bo'lganligi. Bunday holatlarga qarshi o'laroq og'ir vazminlik bilan ish tutib xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beraoladigan to'g'ri yo'lni topishga erishilganligi.⁴

¹ Qarang. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 36-bet.

² O'sha asar 82-83-betlar

³ Qarang. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 83-bet.

⁴ O'sha asar 83-84-betlar.

Shuningdek, mazkur asarda respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo'yicha taniqli olimlar ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilinganligi va komissiya tomonidan taqdim etilgan loyihaning Oliy Kengash sessiyasida atroflicha muhokama qilinganligi, nihoyat 1989 yilning 19 oktabr kuni O'zbek tili davlat tili deb e'lon qilinganligi ta'kidlangan.

«Hayotimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'l mish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomiga va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqeа edi»¹ - deydi Islom Karimov.

1992 yil 7 dekabrdan qabul qilingan O'zbekiston Respubliasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yilgan.

Ushbu asarda o'tilgan mustaqil taraqqiyot yo'lida bosib davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni, tilimizning o'ziga xos xususiyatlari, davlat tilining xalqaro miqiyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotganligi chuqur sharhlab berilgan. Bularidan tashqari, hozirgi paytda oliv hokimiyat irodalaridan tortib mahalliy boshqaruv irodalarigacha ish yuritish ona tilimizda amalga oshayotganligi, ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, uning nufuzini oshirish, 1993 yil 2 sentabrda yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan O'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilinganligining siyosiy ahamiyat haqida bir qator vazifalarning dolzarbligi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil etilgan etilgan.² Ona tiliga va Vatanga muhabbat tuyg'usi har bir fuqaroga ruhiy kuch bag'ishlaydi. Bobomiz Alisher Navoiyning «Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz» degan so'zlarida chuqur hayotiy haqiqat mujassam etganligi bizni fikrlashga undaydi.

Tayanch so'zlar: millatlararo, totuvlik, bag'rikenglik, polietnik, monoetnik, millatchilik, davlat tili, xorijiy til, ona tili, ruhiyat, fidoiylik.

Takrorlash uchun savollar

1. Millatlararo totuvlik qanday ta'minlanadi?
2. Yer yuzida nechta millat va elatlar mavjud?
3. Millatlararo totuvlik g'oyasi Prezidentimizning qaysi asarlarida keng tahlil qilingan?
4. Millatlararo munosabatda uyg'unligi qanday shakllanadi?
5. Diniy bag'rikenglik g'oyasining mohiyati nimadan iborat?
6. O'zbekistonda qancha diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatmoqda?
7. Til va milliy g'oya o'rtasida uzviy bog'liqlik nimalardan iborat?

Referat uchun mavzular

1. Millatlararo totuvlik to'g'risida Islom Karimov.
2. Millatlararo totuvlik va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
3. O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar: maqsadi va vazifalari.
4. Diniy bag'rikenglik to'g'risida Islom Karimov.
5. Islom Karimov davlat tili to'g'risida (Yuksak ma'naviyat – yengilmas asari bo'yicha).
6. Ona tilini asrab – avaylash va uni boyitish to'g'risida Islom Karimov.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 84-85-betlar.

² Qarang. O'sha asar 87-89-betlar.

7. «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi va uning tarixiy-siyosiy ahamiyati.

8. Til – millat ruhiyatning ifodasi ekanligi.

9 – Mavzu. Milliy g’oya va yoshlar. Milliy g’urur va or-nomus.

Reja.

1. Milliy g’oya va yoshlarda e’tiqodni mustahkamlash masalasi.
2. Yoshlarning milliy g’urur, or-nomus, qadr-qimmatini anglashning milliy g’oya bilan bog’liqligi.
3. Yoshlarning o’zligini anglashi va yot g’oyalarga munosabati.

Ushbu mavzudagi 1-savolni – “Milliy g’oya va yoshlarda e’tiqodni mustahkamlash masalasi”ni o’qituvchi bayon etishida yoshlarda mustahkam e’tiqodni shakllantirish va mustahkamlashda milliy istiqlol g’oyasining asosiy sifatiga yana bir bor e’tibor berishimiz lozim. Chunki, unda milliy g’oyaning asosiy vazifalari hamda namoyon bo’lish xususiyatlarda o’z aksini topadi. Milliy g’oyaning asosiy vazifalari, talablari o’zaro aloqadorlikda namoyon bo’ladigan qator talablar borki, ularning aksariyat yoshlar faoliyati va amallariga bevosita daxldordir.

Hozirgi davrdagi yoshlarmizning muayyan qismiga xos xususiyatlardan biri, ularning yangiliklarini tez ilg’ab olish, milliy g’oyani idorok etishi, anglashi va xulosalar chiqarishga harakat qilishlari. Lekin, yoshlarmizning aksariyatining faoliyatida nazariy – amaliy yordamga ehtiyoj borligi yaqqol sezilmoxda.

O’zbekiston mustaqillikni mustahkamlash, Vatanimizning ravnaqi aynan yoshlarga bevosita bog’liq bo’lib qolmoqda. Ana shunday sharoitda qator vazifalarning yechimi ko’proq oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya bilan bog’liqligi yaqqol sezilmoxda.

Bu vazifalar asosan quyidagilardan iborat:

- yoshlarmizning milliy va umumbashariy qadriyatlariga munosabatini to’g’ri yo’nalaltirish zaruriyati;
- yoshlarmizning e’tiqodini mutahkamlash va ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash lozimligi;
- yoshlarning ruhiyatida milliy g’urur, milliy or-nomus, kelajak to’g’risida qayg’ura olish fazilatlarini mamlakat, millat kelajagi bilan bog’liqdigini atroficha tushuntirish;
- yoshlarning Vatan oldidagi ma’suliyatini oshirish kabi vazifalar. Bu yuqorida sanab o’tilgan qator vazifalarni bajarishda “Milliy istiqlol g’oyasi” fani vositasi sifatida muhim o’rin tutadi. Shu bois bugungi talab biz o’rganayotgan ushbu fan bo’yicha tayyorlangan o’quv qo’llanmalardan foydalanish bilan chegaralanmaslikni, balki Prezidentimiz Islom Karimovning qator asarlaridan va nutqilaridan keng foydalanishni taqazo etmoqda.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, birinchi savolning mohiyatini ochib berishda Islom Karimovning quyidagi asarlaridan foydalanish joizdir.

Prezident Islom Karimovning – “Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish” nomli risolasida yoshlarmizning ongu tafakkurini, ma’naviy olamini izdan chiqarishga urinayotgan buzg’unchi g’oyalari ta’siridan himoya qilish zarurligi alohida ko’rsatilgan. “O’zbekistonga nisbatan muayyan siyosiy markazlar tomonidan

turli xil falsafiy, mafkuraviy, informatsion vositalardan ustalik bilan foydalananayotgan holda ta'sir o'tkazish, hali dunyoqarashi to'liq shakllanmagan o'g'il - qizlarimizni tanlagan yo'lidan og'darish, ularning qalbiga biz uchun mutlaqo begona bo'lgan qarashlarni singdirish, ma'naviy ildiz va tomirlarimizdan judo qilishdek g'arazli intilishlar yashiringani bugun tobora ayon bo'lmoqda"¹ - deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz.

Ushbu kichkinagina risolada katta muammolarning yechimiga qaratilgan quyidagi qator fikrlar, mulohazalar berilgan:

1. Ezgu ishlarimizning davomchisi bo'lgan, yuksak marralarga erishish yo'lida hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan, tayanch vazifasini bajaruvchi yoshlарimizning yovuz kuchlar ta'siridan himoya qilish zarurligi;
2. "Ommaviy madaniyat" shaklidagi puxta niqoblangan har qanday tahdid va ta'sir o'tkazishga qarshi kurashish lozimligi;
3. Odamning irodasi, dunyoqarashi baquvvat bo'lishi uchun uning hayotga, ertangi kunga, o'zining kuch va imkoniyatlariga ishonchi mustahkam bo'ilishi kerakligi;
4. Ayniqsa yoshlарimiz qalbida kelajakka ishonch tuyg'usini oshirish darkorligi;
5. Ommaviy axborot vositalarining ta'sirchanligini kuchaytirish.²

O'zbekiston yoshlарining tafakkur tarzi, yangilikka intilishi, ilg'or texnologiyalarni egallashga moylligini oshirish ozod-obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish g'oyasi bilan bog'liqlikni Islom Karimovning "Jamiyatimiz mafkurasi – xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin", "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" nomli risolalaridan foydalangan holda bayon etish mumkin.

"...ta'lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi".³

Prezidentimiz yoshlарimizni o'zga mafkuraviy ta'sirlar doirasiga tushib qolmasligi uchun "...yoshlарimizning iyomon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar yetib tarbiyalash" kerakligini ta'kidlaydi⁴.

Shu o'rinda o'qituvchi e'tiqod tushunchasi mazmuniga talabalarning e'tiborini qaratsa darsning ta'sirchanligi yanada oshadi. E'tiqod (arabchadan olingan bo'lib, ishonmoq, imon, amin bo'lmoq ma'nolarini anglatadi.) E'tiqod inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l – yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilimlar, g'oya va tasavvurlar ifodasi bo'lgan tushuncha. E'tiqod amalda insonning voyaga yetishi jarayonida shakllanadi.

E'tiqod o'z – o'zidan shakllanmaydi. Avvalo inson biror ishni boshlashdan oldin, aniq maqsadni belgilab oladi. Bu esa ehtiyojlar, manfaatlар va tajriba bilan bog'liq holda kechadi. O'zlashtirilgan bilimlarning amalda qo'llanish imkoniyatlari ham baholanadi. Shu tarzda insonning to'plagan bilimlari, ehtiyoj va manfaatlari,

¹ Karimov I.A. "Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish". T.: "O'zbekiston ", 2009, 6-7-betlar.

² Qarang. O'sha asar, 8-13-betlar.

³ Karimov I.A. Jamiyatimizning mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. 17-bet.

⁴ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 11-bet.

hayotiy tajribasi asosida harakat qilish zaruriyatini anglashi jarayonida muayyan e'tiqod shakllanadi. U inson faoliyatining izchil, mazmunli, mantiqiy, maqsadli bo'lishiga olib keladi.

O'qituvchi e'tiqod to'g'risida o'z fikrini bayon etishi jarayonida talabalarning diqqatini ijtimoiy jihatdan e'tiqod insonning faoliyatiga bo'lgan munosabatini (aloqadorlik holatini) ham ifodalashiga qaratishi maqsadga muvofikdir.

Shunga e'tibor berishimiz lozimki, bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirilib olingandagina e'tiqodga aylanadi. Kundalik hayotda taraqqiyotga, hurlikka yetaklovchi ishonch va e'tiqod bilan buzg'unchi, adashtiruvchi, yolg'on "e'tiqod"ni farqlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi mustaqil O'zbekiston fuqarolarining umumiy manfaat va qadriyatlarini ifodalaydi hamda shakllanayotgan sog'lom va barkamol avlod e'tiqodining mazmun – mohiyatini belgilaydi.

Yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'rzasida ta'kidlanganidek, yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyot uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimizdir¹.

O'qituvchi ushbu mavzu rejasidagi birinchi savolga oid materiallarni bayon etish jarayonining oxirida Islom Karimovning e'tiqod, ishnoch to'g'risidagi quyidagi fikrini o'qib bersa maqsadga muvofiq bo'ladi.

"...milliy mafkura - bu xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodir. Xalqning shuurida hamisha, har qanday sharoitda ham buyuk orzular, ezgu niyatlar, kelajakka, yorug' kunlarga ishnoch mavjud bo'ladi. Bizning ezgu ishlarimiz zamirida ham ana shunday buyuk ishonch bor. Aniq maqsad yo'lidagi buyondkorlik ishlarimiz amaliy natija bera boshlagan, ko'zlangan rejalarimiz bosqichma-bosqich ro'yobga chiqib, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rin egallab borayotgan bugungi kunda xalqimiz, millatimiz qalbidagi ana shu ishonch va e'tiqod yanada mustahkamlanmoqda"² – deydi Islom Karimov.

2. Yoshlarning milliy g'urur, or-nomus qadr qimmatini anglashning milliy g'oya bilan bog'liqligi.

Mazkur savol o'rganayotgan mavzuning markaziy masalalaridan biri sanaladi. Shu bois bu savolga oid materiallarni bayon etishdan oldin qisqacha ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishiga to'talib o'tishi o'rnlidir.

Uzoq davom etgan qaramlikdan ozod bo'lgan millat o'zligini anglab yetgandagina taraqqiyot yo'liga tezda tushib olishi mumkin. "Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"³ – deydi Islom Karimov. Shu sababli mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlaboq ma'naviy tiklanish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklanishni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz" deb ta'kidlagan edi Yurtboshimiz. Shuningdek, tarix xotirasi, xalqning,

¹ Qarang. Xalq so'zi. 2009 yil, 6-dekabr.

² Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurası – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 30-31-betlar.

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 137-bet.

jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rın tutayotganligi tarix millatning haqiqiy tarbiyachiga aylanganligi urg'ulangan.

Ma'lumki, milliy g'oyaning mezonlaridan biri – bu milliy g'urur va ornomusni baland tutish, qadr-qimmatni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, o'zligidan begonalashmaslik, dunyo fani yutuqlarini egallashi kabi muhim vazifalar hisoblanadi.

Bu vazifalarning mohiyatini ochib berishda Yurtboshimizning “O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, mafkura” T.: “O'zbekiston”, 1996, 76-85; 86-102; 202-204-betlar. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. T.2. T.: “O'zbekiston” 1996, 128-131; 226-228; 233-242; 283-284; 292-298-betlaridagi materiallardan keng foydalanishi mumkin. Mustaqillik O'zbekiston xalqiga ko'p imkoniyatni tuhfa etdi. “Birinchi navbatda, odamlarning dunyo qarashi o'zgarishi, g'urur, oriyat, sha'n va nomus tuyg'ulari kuchayishi, hayotga va mehnatga munosabati, Vatanga, yurtimizga mehri, egalik va ma'suliyat hissi kuchayishini ko'ramiz”¹ - deydi Islom Karimov.

Hayot tajribasi shuni ko'rsatdiki, agar milliy g'ururni, Vatanni anglash amalda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ulari bilan mushtarak bo'lmasa, yaxshi samara bermaydi. Shu sababli, milliy g'oyaning tamoyillari, tushunchalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik, mushtaraklikni ta'minlashga e'tibor kuchaymoqda. Uyg'unlik, mushtarakliklik prinsiplariga tayangan har qanday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayoni shaxs ma'naviyatini boyitishga samarali ta'sir etadi.

Dars jarayonida o'qituvchi Yurtboshimizning “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” (T.: “O'zbekiston”, 1992) risolasining 68-78-betlaridan foydalanishi mumkin.

“Davlatimiz ramzlari – bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlatiradi. Mana shu ramzlarni ezozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishnochni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi” - deydi Islom Kariimov (76-bet).

Yoshlarning milliy g'urur, or-nomus, qadr-qimmatini anglashi milliy g'oya tamoyillari bilan bog'liq. Shu sabali yoshlarda milliy g'urur tuyg'usining shakllanishida Prezidentimizning qator asarlarida ko'rsatib o'tilgan tahliliy xulosa va fikrlari o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi.

“Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o'zining qudratli ildizlari bilan o'z oilasining, avlod-ajodlarning nomus-origa chuqr ehtiromiga, insonning shaxsiy vijdoniga, burchga va o'z so'ziga sodiqlikka borib taqaladi”² – deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz.

O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmati, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. (77-bet)

Mustaqillik tufayli ma'naviyat, mafkura turli zug'umlardan ozod qilindi, erkin fikrga, millat tafakkuriga keng yo'l ochildi. Bu imkoniyat fuqarolarning erkin

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin T.1.,T.: «O'zbekiston», 1996, 296-bet

² Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. 77-bet.

fikrlashi, g'ururlanishi, or-nomusli bo'lishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'la boshladi. Mana mustaqil taraqqiyot yo'lida 18 yildirki bu omil o'z samarasini bermoqda. Eng muhimmi, O'zbekiston fuqarolari aksariyatining tafakkuri ozod bo'ldi, ongi va shuuri tazyiqdan qutildi. Bu katta yutuq. Shu o'rinda Prezidentimizning quyidagi fikrlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

“Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat, ruhiy – ma'naviy salohiyat ma'rifatli insoning ikki qanotidir. Shuning uchun mustaqillik tafakkurini kengroq tushunishimiz lozim.


Bu tushuncha avvalo:

- O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish;
- O'zining va o'z xalqining, vatanining qadru qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish;
- Yuksak g'oyalar, yangi fikriy jarayonlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi bor imkoniyatini, kerak bo'lsa jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir¹. Bunday vazifaga insoning jismonan, ruhan tayyor bo'lishi uchun u inson eng avvalo milliy g'ururning ma'no-mazmunini chuqr anglab yetishi kerak bo'ladi.

Milliy g'urur – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlari qolidirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Milliy g'urur insonda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, balki ajdodlarimizdan qolgan tarixiy, moddiy va ma'naviy merosni o'rganish, bugungi kunda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlaridan zavqlanish orqali asta-sekin shakllanib boradi.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqqaddasdir. 34-bet.



FUQAROLARDA MILLIY G'URURNI AMALGA OSHIRADIGAN OMILLAR

- Vatanimiz mustaqilligidan faxlanish.
- Mamlakatimizda ozod, farovon va erkin hayot qurish yo'lida faol mehnat qilish.
- Jahon hamjamiyati yutuqlari, uneversal texnologiyalardan foydalanish.
- O'zligini to'liq anglab yetish.

O'rghanayotgan mavzuning 2-savoliga doir materiallarni bayon etishda Prezidentimizning - «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobining 18-28; 41-50; 83-101-betlaridan kerakli darajada foydalanilsa darsning mazmuni va sifati birmuncha oshadi.

Ma'lumki, milliy qadr-qimmatini, g'ururini, or-nomusini anglagan avlod mamlakat kelajagi va mustaqil taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Tarixiy tajribadan ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragiga Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib ulg'aya boradi.

«Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqini jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi»¹ - deydi Islom Karimov.

2-savol javobini yanada chuqurroq bayon etishda o'qituvchi Islom Karimovning – «Barkamol avlod orzusi» (1999 yil) kitobining 38-41-betlaridan foydalanishi mumkin. «Bugun endi yorug' kunlarga yetganimizdan g'ururlanib, yangi-yangi marralar sari qadam qo'yayotganimiz uchun fahrlanib ishlash va yashashga asosimiz bor» - deb ta'kidlaydi Yurtbosimiz. (48-bet) Ushbu kitobda xalqimizni quyidagi ikkita vazifani unutmaslikni da'vat etuvchi fikri mavjud: 1) El-yurtimizning shu yurtda yashayotgan har qaysi insonning eson-omonligi O'zbekistonning eng katta yutug'i va boyligi ekanligi;

2) Bu boylikni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, qadriga yetish O'zbekiston fuqarolarining muqaddas insoniy burchi ekanligi.

Shuningdek, Prezidentimiz Islom Karimov milliy g'oyaning mazmun mohiyatini quyidagi fikrlari bilan to'liq ochib bergan desak xato bo'lmaydi. «Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur». Shuningdek, milliy g'oya Vatanimizning shonli o'tmishi va kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimizning boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerakligini ta'kidlangan.²

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 90-bet.

² Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: «Sharq», 1999, 38-bet

3. Yoshlarning o'zligini anglashi va yet g'oyalarga munosabati.

Jahon tajribasidan ma'lumki, eski bir jamiyatdan yangi jamiyatga o'tishda jamiyatning ba'zisi o'zgarishi bilan usqurtmasi ham isloh etiladi. O'zbekiston xalqining bir asrdan ziyod hukm surgan qaramlik davridan keyingi mustaqil taraqqiyot yo'liga tushib olishi albatta oson kechgani yo'q. Ayniqsa, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Ma'naviy qadriyatlarni hamda biz uchun muqaddas bo'lgan diniy qadriyatlar va an'analarni qaytarish va tiklash, o'zligimizni anglash ancha murakkab sharoitda eski imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi»¹.

Milliy o'zlikni anglashning naqadar dolzarbliji Yurtboshimizning «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» risolasida ham chuqur tahlil etilgan. Unda quyidagilar ta'kidlab o'tilgan:

- 1) Birorta xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni o'zligidan, tarixdan, madaniyatidan judo qilishga intilishi;
- 2) Agar shunga o'xhash zararli ta'sirlar davom etaversa, millat o'zligini yo'qotish;
- 3) Oqibatda ming yillik an'analarni boy berib, olamonga aylanib qolishi mumkinligi.

Bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun Yurtboshimiz o'z risolasida quyidagi vazifalarni alohida ko'rsatib o'tgan.

Birinchidan, - odamlarning, avvalambor yoshlarning iymon e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash;

Ikkinchidan, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarni asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish;

Uchinchidan, yoshlarning men o'zbek farzandiman, deb, g'urur va iftixon bilan yashashga erishishdir.

Bu yuqorida sanab o'tilgan vazifalar mohiyatini bayon etib bo'lgandan keyin, o'qituvchi Prezident Islom Karimovning yoshlar to'g'risida quyidagi so'zlarini o'qib berish mumkin. «Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota – bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatini qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyonи chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin»²

¹ Qarang. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 138-bet.

² Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 11-12-betlat.

Yoshlarga milliy – madaniy meros, ajdod-avlodlaridan, Vatandan faxrlanish tuyg’ularini singdirish eng murakkab vazifalardan biridir. Bu savolga aniq javobni biz Islom Karimovning quyidagi asarlaridan topishimiz mumkin¹.

Yurtboshimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida quyidagi dolzarb masalalar chuqur tahlil qilingan:

- Milliy g’oyaning ajdoddalaridan - avlodlarga o’tib, asrlar davomida ezozlab kelinayotgani va xalqimizning ma’naviy ehtiyojiga va xalqimiz ma’naviy ehtiyojiga va hayot talabiga aylanib ketganligi; (71-bet)
- milliy g’oya O’zbekistonda yashayotgan barcha odamlarning hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan tushunchalarni o’z ichiga olganligi;
- Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma’naviy va jismoniy kamolotiga bog’liqligi; (72-73-betlar)
- o’sib kelayotgan avlodga, uning ma’naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish zarurligi;
- O’zbek tili davlat tili deb e’lon qilinganligi, davlat tilining xalqaro miqiyosda faol muloqot vositasiga aylanib borayotganligi, ona tilini asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishslash zarurligi;
- mamlakatimizda amalga oshrilayotgan islohotlar va ularning ma’naviy mezonlari va yoshlarimizning ma’naviy olamida bo’shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog’lom hayot tarzi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg’usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish zarurligi;
- mustaqillik sharofati bilan buyuk allomalarimizning qoldirgan ma’naviy meroslari, hayotiy faoliyati tarixini o’rganish va ulardan foydalanish imkoniyati vujudga kelganligi.

Shunday qilib, mustaqillik sharoitida respublikamizda bunyodkorlik g’oyalar jamiyatning barcha sohalariga ijobjiy ta’sir etmoqda. Natijada katta bunyodkorlik ishlari amalga oshmoqda. Ulardan faxrlanish tuyg’ularini o’stirish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

“...xalq ma’naviyati shunday buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch – qudrat, g’ayrat va ilhom olib, o’zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi”² - deydi Islom Karimov. Ana shu ummondan ma’naviy oziqlanish avlodlarimiz uchun ichki zaruriyatga aylanib bormoqda.

Tayanch so’zlar: e’tiqod, ishonch, g’urur, milliy g’urur, or-nomus, qadr-qimmat, faxrlanish, avlod, bunyodkorlik, intilish, kurash, xalqparvarlik, millatparvarlik, mushtaraklik.

¹ Karimov I.A. «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori» T.6. T.: «O’zbekiston», 1997, 324-346-betlar; «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda». T.: «O’zbekiston», 2000, 6-12, 14-26, 28-38-47-48-betlar; «Egali yurt erkini bermas». T.9. –T.: «O’zbekiston», 2001, 70-98-betlar; «Kamolot» yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo’lsin. – T.: «O’zbekiston», 2001, «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» T.: «Ma’naviyan», 2008, 29-65; 159-170-betlar.

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 169-170-betlar.

Takrorlash uchun savollar

1. E'tiqod tushunchasining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
2. Insonda e'tiqod qanday shakllanadi?
3. Yoshlarimizning iymon – e'tiqodini mustahkamlashning ahamiyati to'g'risidagi fikrlar Islom Karimovning qaysi risolasida o'z ifodasini topgan?
4. Yoshlarning milliy g'urur, or-nomus, qadr-qimmatini anglashiga ta'sir etuvchi qanday omillar mavjud?
5. 1992 yilda Islom Karimovning qaysi kitobi nashr etilgan edi?
6. "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi" degan jumla Yurtboshimizning qaysi asaridan olingan?

Referat uchun mavzular

1. I.A.Karimov milliy va umuminsoniy qadriyatlar to'g'risida
2. Milliy istiqlol g'oyasining maqsad va vazifalari to'g'risida Islom Karimov.
3. Islom Karimov ishonch va e'tiiqod to'g'risida (Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir risolasi bo'yicha)
4. Yoshlarning o'zligini anglashi va yot g'oyalarga munosabati;
5. Yoshlarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik g'oyalardan faxrlanish tuyg'ularini o'stirish zarurligi;
6. Yoshlar ongida milliy g'urur tuyg'usi va e'tiqodini mustahkamlashning yo'llarini va vositalari.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. – T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-b.
3. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T.7. - T.: «O'zbekiston», 1999. 84-102-b.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8.- T.: «O'zbekiston», 2000. 489-508-b.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: «O'zbekiston», 2000. 462-467-b.
6. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. – T.: «O'zbekiston», 2001. 70-98-b.
7. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasidagi so'z boshi. T.9. – T.: «O'zbekiston», 2001. 220-224-b.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: «O'zbekiston», 2003.
9. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. – T.: «O'zbekiston», 2004.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008.
11. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «O'zbekiston», 2001.
12. Sangirov R., Rahimov S., Masharipov I. Milliy g'oya. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2008.
13. Sangirov R Istiqlol g'oyasi-taraqqiyotimiz omili. // To'plam. Istiqlol mafkurasi: manbalari, muammolar va hal qilish yo'llari. T.: 1994.
14. Sangirov R Xalqlar do'stligi-g'alabaning muhim omili. // O'zbekistonning buyuk g'alabaga qo'shgan hissasi. - T.: 1995.
15. Sangirov R Milliy g'oya va milliy mafkuraning ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni. // Ma'naviyat va ma'rifat ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni. TIMI. T.: 2005.
16. Sangirov R.S., Erkinov B. Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishning vositalari: natijalari va muammolar // Ilmiy maqolalar to'plami. 1-qism. – T.: «Jizzax», 2006. – B. 133-137-b.
17. Zuparova M.Q. Milliy istiqlol g'oyasi (testlar) TIMI 2008, 30-b.
18. Shermuhamedova O.U. Tarix xotirasi va milliy ma'naviyatimiz takomilidagi ayrim muammolar // To'plam. Malaka oshirish tizimida tarixiy xotira va pedagogik-psixologik asoslar T., 2009, 42-44-betlar.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BO'LIM. JAMIYAT TARAQQIYOTINING G'OYAVIY ASOSLARI VA HOZIRGI ZAMON	
I.1 Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	4
2-mavzu: Jamiat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi.....	11
3-Mavzu. Glaballashuv sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi.....	20
4- mavzu. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish – xavfsizlik va barqarorlik omili.....	24
II BO'LIM. O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI VA MILLIY G'OYANING ZARURLIGI VA AHAMIYATI	
5-Mavzu. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi va ahamiyati.....	34
6-Mavzu: Milliy g'oya va milliy-ma'naviy qadriyatlar.....	38
III BO'LIM. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI – O'ZBEKISTONNING O'ZIGA XOS VA MOS RIVOJLANISH KONSEPSIYASI	
7-mavzu: Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish.....	43
8-Mavzu: Millatlararo totuvlik, milliy g'oya va diniy bag'rikenglik.....	51
9 – Mavzu. Milliy g'oya va yoshlar. Milliy g'urur va or-nomus.....	57
Adabiyotlar.....	67

Sangirov R.S t.f.d., professor

Zuparova M.Q katta o'qituvchi

Shermuxamedova O.U o'qituvchi

“Milliy g'oya” fanini o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
I.A.Karimov asarlaridan foydalanish bo'yicha

(metodik qo'llanma)

Muharrir: M.Nurtoyeva

TIMI bosmaxonasida chop etildi
Toshkent – 700000. Qori Niyoziy ko'chasi. 39 uy.

Bosishga ruxsat etildi
Qog'oz o'lchami 60X84 1/16
Hajmi 4,1 b.t 35 nusha
Buyrtma №